

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI
TERMIZ FILIALI**



**“TIBBIY TA'LIMDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALAR - 2023:
DOLZARB MUAMMOLAR, YUTUQLAR VA INNOVATSIYALAR”
Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari**

**Материалы Республиканской научно-практической конференции
“ИНТЕРАКТИВНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В МЕДИЦИНСКОМ ОБРАЗОВАНИИ-
2023: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ”**

**Proceedings of the Republican scientific-practical conference
“INTERACTIVE TECHNOLOGIES IN MEDICAL EDUCATION-2023: CURRENT
PROBLEMS, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS”**

07 yanvar 2023 yil



Termiz - 2023

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI
SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI
TERMIZ FILIALI**



**"TIBBIY TA'LIMDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALAR-2023:
DOLZARB MUAMMOLAR, YUTUQLAR VA INNOVATSIYALAR"**
Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari

**"ИНТЕРАКТИВНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В МЕДИЦИНСКОМ ОБРАЗОВАНИИ-
2023: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ"**
Материалы Республиканской научно-практической конференции

**"INTERACTIVE TECHNOLOGIES IN MEDICAL EDUCATION-2023:
CURRENT PROBLEMS, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS"**
Proceedings of the Republican scientific-practical conference

7 январ 2023 йил



TERMIZ - 2023

Ushbu ilmiy ishlar to‘plamida Respublika oliy ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari hamda Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filialida faoliyat ko‘rsatayotgan professor-o‘qituvchilarning ilmiy ish natijalari e’lon qilingan . Anjuman materiallari TTATF Termiz filiali Kengashining qarori asosida nashrga tavsiya etildi (Bayonomasi № 6, 31.01.2023 yil).

Mas’ul muharrir:

1. F.A.Otamuradov – t.f.d. TTA Termiz filiali direktori.

Tahrir hay’ati:

2. M.I.Shamsutdinova - t.f.d. professor TTA Termiz filiali ilmiy ishlar va innovasiyalar bo‘yicha direktor o‘rinbosari v.v/b.
 3. YO.B.Gulyamov - t.f.n., dos. TTA Termiz filiali o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari.
 4. O‘.R.Fayziyeva - TTA Termiz filiali Davolash ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari.
 5. D.B.Aymuratova – TTA Termiz filiali ilmiy-tadqiqotlar,innovasiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i v.v/b.
- 6.B.I.Tumisheva - TTA Termiz filiali Kadrlar bo‘limi bosh muhandisi.
- 7.M.A.Ergashev - TTA Termiz filiali Kengashi kotibi.

To‘plamda chop etilgan ma’lumotlar va raqamlar mualliflar tomonidan taqdim etilgan. Nashriyot va tashkiliy qo‘mita chop etilgan ma’lumotlar xato va kamchiliklari uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olmaydi.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 yanvardagi -sonli Farmoni, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 20 yanvardagi 172-sonli qaroriga asosan Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali tashkil etilgan. Filialda 3ta ta’lim yo‘nalish, 3 ta fakultet, 17 ta kafedra faoliyat olib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-sonli farmonining 1-ilovasining 3-bandi ijrosiga asosan 2023 yil 7 yanvarda Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filialida “Tibbiy ta’limda interaktiv texnologiyalar - 2023: Dolzarb muammolar, yutuqlar va innovatsiyalar ” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazish belgilangan bo‘lib, ushbu ilmiy-amaliy anjuman Respublika oliy ta’lim muassasasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari hamda Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filialida faoliyat kursatayotgan professor- o‘kituvchilari ishtirokida Respublika miqyosida o‘tkazildi.

O‘zbekistan Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish xamda yoshlarning har tomonlama yetuk mutaxassis bo‘lib kamol topishiga bo‘lgan intilishlarini qo‘llab-quvvatlash, iqtidorli yosh olimlarni aniqlash, ularning kasbiy mahorati va bilim darajasini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, talabalarni ilmiy ishlarga qiziqishini ortirish, fan va ta’limni o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash maqsadida ushbu anjuman tashkil etildi.

Bundan tashkari ushbu anjuman Respublika oliy ta’lim muassasalarida ilmiy izlanish olib borayotgan tajribali mutaxassislar bilan xamkorlikni yulga kuyish, tajriba almashish va ilg‘or tajribalarni aynan filialda xam amaliyotga tadbik etish kuzda tutilgan.

“Tibbiy ta’limda interaktiv texnologiyalar - 2023: Dolzarb muammolar, yutuqlar va innovatsiyalar ” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumanga 3 ta sho‘ba bo‘yicha jami 100 dan ortiq maqola va tezislar kelib tushgan bulib, anjuman muharirlik va nashriyot komissiyasi tomonidan 60 dan ortik maqola va tezislar saralab olinib,to‘plamga tavsiya etildi.

“TIBBIY TA’LIMDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALAR - 2023: DOLZARB MUAMMOLAR, YUTUQLAR VA INNOVATSIYALAR” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN QATNASHCHILARI!

Hurmatli Ustozlar, hamkasblar, mutaxassis va talabalar!

Men bugun Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filialimizda o‘tayotgan tibbiyot va tibbiy ta’lim fanlar sohalarining innovatsion masalalarini, xususan tibbiyotda klinik fanlarini o‘qitishning innovatsion uslublarini, interfaol vositalaridan foydalanish, bugungi kunda inson salomatliginiva tibbiy xizmatlar xavfsizligi va logistikasining dolzarb masalalari bo‘yicha zamonaviy yondoshuvni samrasini oshirish va ilmiy tadqiqot loyihamonlari ishlab chiqish va tadbiq etish va sohadagi muammolarini bartarf etishda tibbiy ta’limni va klinik fanlarni o‘qitishning zamonaviy uslublarini dolzarb muammolari ,yutuqlari va bugungi kundagi innovatsion yondoshuvlar doirasida muxokama kilishga bag‘ishlangan anjumanda, tibbiyot sohasi va tibbiy ta’lim istikbollari haqida fikr almashish, ayniqsa, mazkur masalalarni muhokama qilish uchun ma’lum ma’noda ilg‘or ilmiy maydoncha yaratilganligidan mammunman.

Xozirgi kunda, filialda, 146 nafar professor-ukituvchilar, shulardan 8 nafari fan doktori (DSc) va 28 nafari fan nomzodlari va PhD doktorlari faoliyat yuritmokda.

Filialimiz olimlari tomonidan tarakkiyotining ustuvor yunalishlariga mos ravishda, tibbiy ta’limni va zamonaviy tibbiyotni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni samarasini oshirish muammolariga karatilgan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 12 ta fundamental, 1 ta innovatsion, yosh olimlarning 3 ta - fundamental tadqiqotlari olib borilmoxda. Bu loyixa ishlarini bajarish uchun professor- ukituvchilar bilan bir katorda 11 nafardan ortik tayanch doktorant va doktorantlar, 62 nafar mustakil izlanuvchilar, 120 nafar klinik ordinaturlar va 149 nafardan oshiq bakalavr talabalar jalb etilgan.

Olimlarimiz va talabalarimiz, professor-ukituvchilar va talabalar ishirokidagi xorijiy tibbiyot oliy ta’lim muassasalari bilan xalqaro xamkorlik doirasida o‘zaro akademik mobillik yulga qo‘yilgan.

Olib borilgan ilmiy-tadkikotlar natijalari asosida 2023 yilning xozirgi kuniga qadar professor-o‘qituvchilarimiz, yosh olimlar va doktorantlar tomonidan 12 ta monografiya, 4 ta darslik va 6 ta o‘quv qullanmalar, xorijiy jurnallarda 248 ta, maxalliy jurnallarda 203 ta ilmiy makola, xalkaro konferensiyalarda 125 ta, maxalliy konferensiyalarda 133 ta tezislar chop etilib, 1 ta Foydali model uchun olingen patent hamda dasturiy mahsulotlar uchun 11 ta guvohnomalar olindi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 maydag‘i “Oliy o‘quv yurtidan keyingi talim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 304-sonli qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minalash borasida tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchilar tomonidan doktorlik dissertasiyalarini o‘z muddatida himoya qilinishi yuzasidan tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amalgalash oshirilmoxda.

2023 yilning 7 yanvar holatiga filialda 35 ta ixtisoslik buyicha 12 nafar tayanch doktorant, 3 nafar doktorantlar 68 nafar mustakil izlanuvchilar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishmokda. Bugungi kunda universitetda ishlayotgan fan doktorlaridan 8 nafari tayanch doktorant, doktorant va mustakil izlanuvchilarga ilmiy rahbarlik kilmokdalar. Filialning tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchilari tomonidan 4 ta dissertatsiya himoya kilindi. Shulardan 2 tasi falsafa doktori (PhD) va 2 tasi fan doktori (DSc). Yosh olimlar va iktidorli talabalarning innovatsion texnologiyalarni yaratish borasidagi tashabbuskorligini oshirish maksadida filialda 2022 yil noyabr holati bo‘yicha jami 149 ta ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanuvchi iqtidorli talabalar mavjud. Bugungi kunda filialimizda talabalar ilmiy jamiyatiga asoslangan fan to‘garaklari soni 33 tani tashkil etadi.

Iqtidorli talabalar tomonidan 2022 yil mobaynida xalqaro jurnallarda 17 ta maqola, Respublika jurnallarida 12 ta maqola, Xalqaro konferensiya to‘plamlarida 23 ta tezis va Respublika konferensiya to‘plamlarida 28 ta tezis chop etilgan.

Buxoro davlat tibbiyot institutining 2022 yil 21 yanvardagi tibbiyot oliy o‘quv yurtlari talabalar o‘rtasida “Abu Ali ibn Sino ta’limotidan III renessansgacha” xalqaro talabalar onlayn olimpiadasida

2 nafar talaba 3-o'rinni egallagan. Innovative in academy,O'zLIDEP va yoshlar ittifoqi hamkorligida 2022-yil 5-fevralda o'tkazilgan "Eng yaxshi innovator" tanlovida 4 nafar talaba g'oliblikni kiritdi. "Mirzo Ulug'bek vorislari" Respublika tanlovining tuman, viloyat bosqichida 2 nafar talaba g'oliblikka ega bo'lib, Respublika bosqichida faol ishtiroki uchun sertifikatni qo'lga kiritgan.

2022 yil 14 oktabr sanasida Toshkent tibbiyot akademiyasining 100 yilligiga bag'ishlab II Xalqaro talabalar ilmiy-amaliy konferensiyasi bo'lib o'tdi. Ushbu xalqaro konferensiyada jami 16 nafar Filial talabalari o'z ilmiy mavzulari bilan turli xil seksiyalar kesimida ishtirok etishdi. Shundan 8 nafar talaba xalqaro konferensiyada yutuqlarga erishishdi, jumladan 2 nafari 3-o'rinni sohibi va 6 nafari sovrindor talaba.

27 oktabr 2022 yilda o'tkazilgan O'zbekiston Vrachlar assotsiatsiyaning 30 yilligiga bag'ishlangan konferensiyada bir nafar talaba O'zbekiston Vrachlar assotsiatsiyasi stipendianti sohibi bo'ldi.

2022 yil 16 noyabr sanasida Qirg'iziston Respublikasi Bishkek shahri I.K.Axunbayev nomidagi Davlat tibbiyot akademiyasida bo'lib o'tgan VII Pediatriya o'yinlari Xalqaro olimpiadasida Filial "ORTU SOIIS" jamoasi faxrli 3-o'rinni egallashdi

2022-yilning 30-noyabr kuni Toshkent tibbiyot akademiyasida o'tkazilgan "Tibbiyot mohirlari" II Xalqaro olimpiadasida filialning "MED LIFE" jamoasi ishtirok etishdi. Jamoa vakillaridan 3 nafari faxrli 3-o'rinni egallashdi va 3 nafari nominatsiya bilan taqdirlanishdi.

Termiz Muhandislik-Texnologiya Institutida bo'lib o'tgan "fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi asosida muhandislik-texnologiya sohasini rivojlantrish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro talabalar anjumanining innovatsion loyihalar ko'rgazmasida filial talabalari o'z loyihalari bilan faol ishtirok etishdi.

2022 yil 6-7 dekabr kunlari Termiz davlat universitetida viloyatdagagi barcha oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida Surxon Sanoat Qurilish kompaniyasi bilan hamkorlikda "Talaba-yoshlar ilmiy ishlari va innovatsion g'oyalari" tanlovi o'tkazildi. Ushbu tanlovda filialimizdan 12 nafar talabalar ishtirok etishdi va 1 nafar talabamiz faxrli 2-o'rinni 3 mln so'm vaucher, 6 nafar talabamiz diplom va 500 000 so'mlik pul mukofoti bilan taqdirlanishdi

2022 yil 16-17 dekabr kunlari "Samarqand-2020" III Xalqaro talabalar olimpiadasida ishtirok etadigan Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali jamoasi ishtirok etishdi.Ushbu olimpiadada 1 nafar talaba 2-o'rinni,1 nafar talaba 3- o'rinni va (online) olimpiadada 2 nafar talaba 2-o'rinni egallashdi.

Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Davolash ishi 5-bosqich talabalari **Bahodirov Sardor Bahodir o'g'li Ibn Sino nomli** hamda **Boboyorov Sardor Uchqun o'g'li Islom Karimov nomli davlat** stipendiyasiga sazovor bo'lishdi.

Xozirgi kunda yangi innovatsion yondoshuvlar bilan fan-texnika tezkorlik bilan rivojlanayotgan davrda yosh kashfiyotlar fanlararo kesishuvda, turli soalardagi olimlar va mutaxassislar xamkorligidagi natijalar va uslublar asosida yaratilishi mumkin.

Innovatsion rivojlanish jarayonidagi eng uzok, eng kiyin boskich - bu jamiyatda innovatsion madaniyatni shakllantirish, ya'ni innovatsiyalarga bulgan extiyojni tushunish va o'z vaqtida barcha yangiliklarni anglash qobiliyatini singdirishdan iborat.

Bu anjuman, shubxasiz, tibbiyot va tibbiy ta'lim fanlari xamda sohalarining innovatsion rivojlanishiga uzining beqiyos hissasini qo'shadi deb, umid qilaman.

Anjuman ishiga samara va ishtirokchilarga muvaffaqiyatlar tilayman.

**TTA TF direktori
t.f.d. F.A.Otamuradov**

**ANJUMAN MATERIALLARI AXBOROT XATIDA KO'RSATILGAN
SHO'BALAR BO'YICHA 3 GA AJRATIB
TAXLANGAN**

1 – SHO'BA

**KLINIK FANLARNI O'QITILISHIDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALAR : DOLZARB
MUAMMOLAR, YUTUQLAR VA INNOVATSİYALAR**

2 - SHO'BA

**FUNDAMENTAL FANLARNI O'QITILISHIDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALAR :
DOLZARB MUAMMOLAR, YUTUQLAR VA INNOVATSİYALAR**

3 - SHO'BA

**BEMORLARNI DAVOLASHDA ZAMONAVIY TIBBIYOT ISTIQBOLLARI: DOLZARB
MUAMMOLAR, YUTUQLAR VA INNOVATSİYALAR**

**KLINIK FANLARNI O‘QITILISHIDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALAR : DOLZARB MUAMMOLAR,
YUTUQLAR VA INNOVATSIYALAR**

**ICHKI KASALLIKLAR” FANIDA “SIMPTOMATIK ARTERIAL GIPERTENZIYA” MAVZUSIDAGI
AMALIY MASHG‘ULOTNI O‘QITISHDA INNOVATION TEXNOLOGIYA USULLARIDAN
FOYDALANISH**

*Rasulova Rayxon Pardayevna, Gaffarov Baxodir Boltayevich, Normurodova Lola Xodjanazarovna
Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali*

Oliy ta’lim tizimini tubdan isloh qilish va kadrlar tayyorlash milliy dasturini zamonaviy ilmiy tafakkur yutuqlariga, ilg‘or tajribalarga tayangan holda, tibbiyat oliy o‘quv yurtlarida ta’lim jarayonini ta’minlovchi omil hamda ilmiy – uslubiy texnologiya sifatida amalga oshirishdir.

Hozirgi kunda yangi innovasion pedagogik texnologiyalarni ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish va ularni ta’lim-tarbiya jarayonlariga tadbiq etish zaruriyati dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.

Mavzuning dolzarbligi: Zamonaviy pedagogik innovasion texnologiyalar ta’lim jarayonining unumdoorligini oshiradi, talabalarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o‘quvchilarda bilimga qiziqish va intilishlarni oshiradi, bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda mustaqil foydalanish ko‘nikma va malakalarini rivojlantiradi. Pedagog o‘z mutaxassisligi bo‘yicha o‘zlashtirgan bilimidan qat’iy nazar, ta’lim jarayoniga qadam qo‘yar ekan, pedagogik - psixologik bilimlar, pedagogik texnologiyalar, pedagogik maxorat, pedagogik madaniyat va o‘qitish-o‘rgatish uslublari yig‘indisi bo‘lgan zarur pedagogik ko‘nikmalarni egallagan bo‘lishi kerak.

Maqsad: Ichki kasalliklar fanida “Simptomatik arterial gipertenziya” mavzusini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiya usullarini qo‘llash. Talabalarga kasallikning etiologiyasi, patogenezi, klinik simptomatologiyasi, laborator instrumental diagnostikasi, rasional terapiya va asoratlar profilaktikasini o‘rganish.

Vazifalari: Ichki kasalliklar fani bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarda ilg‘or pedagogik innovasion texnologiyalarni qo‘llash yo‘li bilan talabalarning bilim olish darajasini oshirish; Amaliy mashg‘ulotlarda pedagogik innovasion texnologiyalarni qo‘llash yo‘llari haqida ma‘lumotga ega bo‘lish; Simptomatik arterial gipertenziyaning tashxisida pedagogik innovasion texnologiyalarni va ularning o‘quv jarayonida tutgan o‘rni xaqida. Ichki kasalliklar fanida “Simptomatik arterial gipertenziya” mavzusini o‘qitishda ilg‘or texnologiyalarining bir-biri bilan bog‘liqligi: Amaliy mashg‘ulotning tarkibi: Kirish qism-nazariy tayyorlash “Muammoning yechimi” ish o‘yinini o‘tkazish; asosiy qism – Keys – stadi, grafik organayzerlar, venn diagrammasi, SWOT taxlili, videolavxa namoyishi, tematik bemor kurasiyasi; yakuniy qism – “Assessment” texnikasi.

Xulosa: Ichki kasalliklar kursi mobaynida talabalar ichki a’zolar kasalliklari bilan kasallangan bemorlarni so‘rab-surishtirish, kasallik anamnezini yig‘ish, kasallikning asosiy klinik belgilarini aniqlash, laborator-instrumental tekshiruv natijalarini interpretasiya qilish, dastlabki va klinik tashxisni asoslash hamda ifoda etishni o‘rganadilar. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

JUFTLIKDA MASHQ QILISH INTERFAOL TEXNOLOGIYASI

Rajabov B.M., Raximov S.S., Gulmanov I.D.
Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston.

Juftlik yoki diada – bu inson rivojlanishining elementar, shu bilan birga universal shaklidir. Juftlikda ishslash texnologiyasi quyidagi universal ta'lif harakatlarining barchasini o'z ichiga oladi: shaxsiy, boshqarish, bilim orttirish, kommunikativ. Ushbu texnologiyani amalga oshirishda quyidagi juftlik turlaridan foydalaniladi: 1) harakatsiz juftlik – rollarini bir-biri bilan almashtira oladigan ikkita talabani birlashtirish; 2) dinamik juftlik – to'rtta talabalarni birlashtirish, ular masalani har bir sherigi bilan uch marta muhokama qiladi; 3) o'zgartiriladigan (variatsion) juftlik-2 ta, 4 ta, 6 ta talabalarni birlashtirish, har bir guruhdagi talabaga alohida masala beriladi, har bir talaba o'z masalasi yechimini boshqa talabalar bilan muhokama qiladi. Juftlikda bajariladigan ish turlariga qo'yidagilar taalluqli: muhokama (matn ustida ishslash, gapirib berish, muhokama qilish, savollar berish); birqalikda o'rganish (Rivin usuli yordamida bajariladi – juftlikdagi har bir talabaga ikkita kartochka beriladi, ular «o'qituvchi» hamda «o'quvchi» rolida ish olib boradi); bir-biriga o'rgatish (bitta talaba materialning bir qismini, ikkinchisi boshqa qismini yaxshi biladi va ma'lumotlari bilan almashinadi); mashq qilish (juftlik a'zolari «trener» va «o'rganuvchi» rollarida ishslashadi, kartochkalardagi savollar tahlil qilinadi); tekshirish (xatolarni aniqlash va to'g'rilash). Juftlikda ishslash texnologiyasining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bunda ikkita talaba birqalikda faoliyat yuritadi, ya'ni muammo ustida bir-biri bilan ishslashadi, darsning boshidan, to oxirigacha o'zaro faol harakatlarni, ya'ni hamkorlikdagi ishni talab qiladi. Toshkent tibbiyot akademiyasi odam anatomiyasi, operativ jarrohlik va topografik anatomiya kafedrasida operativ jarrohlik va topogarfik anatomiya fani mavzularini o'rgatishda juftlikda ishslash texnologiyasi keng qo'llaniladi. Masalan, bosh sohasining miya qismi mavzusini o'qitishda “**Juftlikda mashq qilish**” texnologiyasi qo'llanilganda juftliklarga quyidagi kartochkalar ko'rinishida topshiriq va muammolar taqdim qilinadi. **Nazariy materiallar bo'yicha** –

- 1) bosh sohasi qismlarining qavatma-qavat tuzilishi;
- 2) kalla suyagi: gumbaz, asos tuzilishi;
- 3) bosh miya pardalari va pardalararo bo'shliqlar.

Amaliy materiallar bo'yicha –

- 1) bosh sohasi jarohatlariga jarrohlik ishlov berish texnikasi;
- 2) trepanatsiyalar;
- 3) antrumektomiya texnikasi.

Bajara olish masalasi bo'yicha –

- 1) Kronlyayn-Bryusova sxemasini chizing;
- 2) Shipo uchburghagi chegaralarini va ahamiyatini aniqlab bering.

Ko'nikmalar bo'yicha –

- 1) bosh sohasi qon ketishlarini to'xtatish uslublari;
- 2) bosh sohasi jarrohligida ishlatiladigan jarrohlik asboblarini ko'rsating va aytib bering. «Juftlikda mashq qilish» texnologiyasi negizida muntazam qaytariladigan mashqlar natijasida mantiqiy fikrlash va tushunish ko'nikmalari shakllanadi. Ma'lum bir ma'lumotni bir nechta sheriklari bilan muhokama qilish assotsiativ bog'lanishlarni oshiradi, va demak materialning ancha mustahkam o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Talabalarda nafaqat o'z muvaffaqiyatlariga, balki jamoa yutuqlariga bo'lgan javobgarlik oshib boradi. O'z-o'ziga, o'z imkoniyatlari va qobiliyatlar, fazilatlari va kamchiliklari haqida adekvat baho berish shakllanadi. Har bir talaba individual sur'atda ish olib borishi sababli o'zini erkin tuta oladi.

**OTM YANGI ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI TRAVMATOLOGIYA-ORTOPEDIYA
FANINI O'QITISHDA KLINIK ORDINATURA YO'NALISHIDA QO'LLASHNI SAMARADORLIGI.**

**A.B. Bolg'Ayev, Y.B. Gulyamov,
Toshkent tibbiyat akademiyasi termiz filiali**

Oliy tibbiy ta'lif tizimiga yangi uslubiy yondashuvlarni joriy etish va izlash bo'lajak travmatologiya-ortopediya mutaxassislarining samaradorligi va sifatini oshirish hozirgi kunning dolzARB muammolaridan biri bo'lib kelmoqda. Ta'lif jarayoni yangi ta'lif texnologiyalarini joriy etish hisobiga tibbiyat fanlarining doimiy tabaqlanishi, shuningdek, hayotning ko'plab sohalari, xususan, zamonaviy fan va texnologiya taraqqiyoti bilan bog'liq ma'lumotlarning miqdori va sifatining barqaror o'sishi hisobga olingan holda travmatologiya va ortopediya fani bo'yicha mutaxassislarini o'qitish juda mas'uliyatlidir. Bularning barchasi klinik ordinatura talabalari tomonidan o'zlashtiriladigan ma'lumotlarni doimiy va sezilarli darajada oshishiga olib keladi. Travmatologiya va ortopediya kafedrasida fanni o'qitish dasturiga muvofiq quyidagi vazifalar qo'yiladi: klinik simptomatologiya-tayanch-harakat a'zolarining eng keng tarqalgan shikastlanishlar va ularni zamonaviy usullarda diagnostika qilishni o'qitish va o'rganish; travmatik shikastlanishlarni tabiatini va davolashning xususiyatlarini o'rganish; travmatik shikastlarda birinchi yordam ko'rsatish bosqichini o'rganish, shikastlangan bemorlarning hayotiga xavf tug'diradigan jiddiy sharoit va asoratlarni o'rganish hamda oldini olish; ortopedik kasalliklari bilan og'rigan bemorlarni davolashning asosiy mezonlari, xususiyatlari va ixtisoslashtirilgan usullariga o'rgatish; travmatologik-ortopedik bemorlarni tekshirish va davolash uchun zarur bo'lgan asosiy amaliy ko'nikmalarni egallash. Bu esa klinik ordinatura talabalarini o'qitishda zamonaviy texnologiyalarini egallash, yangi tamoyillarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Klinik ordinatura talabalarini turli xil vaziyatlarda bemorlarga differensial yondoshuv, yangi zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va davolashning yangi usullarini ishlab chiqishni talab qildi. Shu sababli, kafedrada travmatologiya-ortopediya fanini o'qitishda yangi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish qo'llash va tibbiyat sohasida samarali foydalanish zaruriyatini tug'diradi. Ushbu texnologiyalarni tibbiyat sohasiga tadbiq etilishi klinik ordinatorlarni bilim va amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda egallashi, kasbiy kompetensiyani shakllantirish, klinik fikrlashni, muammoli-vaziyatli masalalarni ta'lif texnologiyalari jarayonida qo'llash, nazariy va klinik bilimlarini amaliy jarayonlarda qo'llash hamda ularning klinik tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi.

VITAGEN TA'LIM BERISH TEXNOLOGIYASI

*Raximov S.S., Axmedov X.S., Rajabov B.M., Gulmanov I.D.
Toshkent tibbiyat akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston.*

Vitagen pedagogika – o'quvchilarning hayotiy tajribasidan foydalanishga asoslangan pedagogika. Vitagen ta'lif – o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida haqiqiy hamkorlik o'rnatilishiga, ta'lif olish va mustaqil o'qishning qo'shilishiga, sub'ekt-ob'ekt munosabatning sub'ekt-sub'ekt aloqaga aylanishiga qaratilgan amaliy yo'l. Hayotiy (vitagen) tajriba – shaxs mulkiga aylangan, uzoq muddatli xotira zahiralarida saqlanadigan, adekvat vaziyatlarda (talab etilganda) dolzARB bo'la oladigan vitagen ma'lumot. Vitagen tajriba inson tomonidan boshidan o'tkazgan, idrok xotirasi, hissiy xotira va xulqiy xotira bilan bog'liq va uning uchun yetarlicha qiymatga ega bo'lgan fikrlar, tuyg'ular, harakatlar qotishmasi.

Vitagen ta'lif – ta'lif maqsadlarida shaxsnинг hayotiy tajribasini, uning intellektual-psixologik potentsialini aktuallashtirishga asoslangan o'qitish usuli. Vitagen ma'lumotning vitagen tajribaga aylanishi bosqichlari: birinchi bosqich – differentialsallashtirilmagan, ajratilmagan vitagen ma'lumotni birlamchi idrok etish; ikkinchi bosqich – baholovchi-

filtrlovchi (shaxs, dastlab filogenezda, ya’ni umuminsoniy gnostik pozitsiyadan, keyinchalik ontogenezda, ya’ni shaxsiy ahamiyatlilik pozitsiyasidan kelib chiqqan holda olgan ma’lumotning ahamiyatliligin aniqlaydi, ma’lumotlarni saralash ontogenetik sodir bo‘ladi); uchinchisi yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadigan bosqich (shaxs, o‘z-o‘zidan, yoki ongli ravishda ma’lum bir ma’lumotni taxminiy “saqlash” muddatgacha eslab qolishni belgilaydi, saqlash muddatlari ma’lumotning ahamiyatliligi, hayotiy va amaliy maqsadga qaratilganligi bilan aniqlanadi – bu ma’lumotning o‘zlashtirilganlik darajasini ham aniqlab beradi). Ma’lumotning o‘zlashtirilganlik darajalari:

1-daraja – operatsion (sust, “har ehtimolga qarshi” eslab qolishga yo‘l tutish, ushbu ma’lumot ta’lim jarayonida shaxsning o‘zini rivojlantirishda eng kam qiymatga ega);

2-daraja – funktsional (ma’lumotni ancha uzoq vaqtga eslab qolishga yo‘l tutish – tanlov vaziyatlarida ishlataladi);

3-daraja – tayanch (uzoq muddatga xotirada saqlash, ta’lim jarayonida o‘zini rivojlantirishda eng katta ahamiyatga ega). Darajalar o‘zaro ta’sir qilishi, biridan biriga o‘tishi, turli ahamiyatlilik darajalarga ega bo‘lishi mumkin.

Toshkent tibbiyot akademiyasi 2-sonli oilaviy tibbiyotda ichki kasalliklar va odam anatomiysi, operativ jarrohlik va topografik anatomiya kafedralarida integratsiya doirasida vitagen ta’lim texnologiyasi keng qo‘llaniladi. Misol tariqasida ankilozlovchi spondilit mavzusini o‘rgatishda avval bo‘g‘imlarning anatomiysi, topografik anatomiysi, klinik anatomiysi malakali anatom va topanatom professor-o‘qituvchilarini tomonidan yoritib beriladi, vaziyatiy masalalar ko‘rib chiqiladi. So‘ngra ichki kasalliklar kafedrasi professor-o‘qituvchilarini o‘z tajribalaridan kelib chiqqan holda ankilozlovchi spondilit klinikasi, diagnostikasi, davolash masalalari haqida ma’lumot berishadi. Mag‘ulotning muhokama qismida talabalar faol ishtirok etishadi va qo‘lga kiritgan nazariy hamda amaliy bilimlarini o‘qituvchilar bilan birgalikda muhokama qilishadi. Bunda “BBB”-jadvali, “Klaster” va “Debat” texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Vitagen ta’lim berish usuli ham ayrim o‘quvchilar, ham jamoaning intellektual potentsialini aniqlash, qo‘lga kiritgan ma’lumotlarni amaliy ishlarda, muammoli vaziyatlarda qo‘llash imkonini beradi. Vitagen ta’lim texnologiyasini qo‘llash talabalarning hayot tajribasi va vitagen tajribasiga tayanib, ma’lumotlarning mohiyati kengligi va amaliy faoliyatda zarurligi haqidagi tushunchalarni shakllantiradi.

HOZIRGI ZAMON TALABLARI ASOSIDA TIBBIYOT OTM TRAVMATOLOGIYA- ORTOPEDIYA FANINI O‘ZLASHTIRISHDA TALABALAR EGALLAGAN AMALIY KO‘NIKMALARINI TIBBIYOTDA QO‘LLASH.

*Y.B. Gulyamov, Y.R. Joynarov
Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali*

Hozirgi zamonaviy sharoitda yangi innovatsion ta’lim texnologiyalarini o‘quv jarayonlariga tadbiq etish Oliy tibbiy ta’limning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Talabalarini o‘qitishning eng muhim bosqichi klinik diagnostika bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish, qo‘shimcha obektiv tadqiqot usullari, shu jumladan invaziv usullar yordamida aniqlangan ishonchli va ehtimoliy simptomlarni aniqlash hisoblanadi. Bakalavriyat yo‘nalishi 4-kurs talabalarini «travmatologiya va ortopediya» fanini o‘qitishda fanga bo‘lgan qiziqishlari, fundamental bilimlarini oshirish, amaliy ko‘nikmaga ega bo‘lishlari va kelajakda malakali shifokor bo‘lib yetishishlarida talabalarini dastlabki mashg‘ulotlarini kafedra tarixi, professor o‘qituvchilarning ilmiy yo‘nalishlarda erishgan

yutuqlari, istiqbolli rejalar va klinikada yo‘lga qo‘yilgan jarrohlik amaliyotlari natijasida erishilgan yutuqlari haqida tanishtirish hamda motivatsiya berish muhim hisoblanadi. Shuningdek, talabalarni 1 va 2 mavzular shoshilinch holatlarda yuzaga keladigan shikastlar, ularning tasnifi, kelib chiqish sabablari, klinikasi, diagnostikasi va davolash usullari, hamda travmatizm, travmatologik va ortopedik bemorlarni ko‘zdan kechirish va tekshiruv usullarini mavzulari bo‘yicha dars jarayonlarini travmpunktda olib borilishi, kasalxonaga murojaat qilgan turli etiologiyadan o‘tkir shikast olgan bemorlarlarga shifokor-travmatolog tomonida ko‘rsatilayotgan yordam jarayonlarini ketma-ketligi: bemorlarni shikoyati, anamnezi, shikastlangan sohani ko‘zdan kechirish, og‘riqsizlantirish, transport immobilizatsiyasini amalga oshirish, tekshiruv chora tadbirlarini qo‘llash, tekshiruv natijalarini asoslash va birlamchi tibbiy yordam (og‘riqsizlantirish, repositsiya, gipsli bog‘lam qo‘yish, skelet tormaga olish, birlamchi jarrohlik amaliyotni) qo‘llash taktikalarini jonli tarzda kuzatib borishlari talabalarni kelajakda har qanday sharoitlarda ham birinchi tez tibbiy yordamni ko‘rsatish onglariga muhrlanib boradi. Bu olgan ko‘nikmalari asosida har qanday yangi hayotga qadam qo‘ygan shifokorning klinik fikrlash va kasbiy kompetensiyani va mahoratlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu ko‘nikmalar asosida kafedrada mavjud bo‘lgan ishchi o‘quv dasturlaridagi amaliy ko‘nikmalar, mustaqil ishlarni bajarilishini nazorat qilish, interfaol pedagogik o‘yinlar o‘quv jarayonlariga tadbiq etish, talabalarda klinik va amaliy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Talabalarni tarbiyalash, xususan, klinik vaziyat vazifalari bankidan foydalanish talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning asosiy vositalaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

ОПТИМИЗАСИЯ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ КРЕДЕТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЕ

**А.Т.Ашурев, Х.С.Худойназаров Термезской филиал Ташкентской медицинской академии
Кафедра медицинской биологии и гистологии.**

Сел исследований. Селю настоящей работе является, изучение рол гистологии в системе высшего медицинского образований.

Материал и методы исследований. Исследование выполнено на кафедре медицинской биологии и гистологии ТФ ТМА. Гистология является необходимым теоретическим фундаментом для приобретения специальных знаний в медицинских ВУЗах. В преподавании гистологии на лечебном, педиатрическом факультетах имеют место различия, которые затрагивают не только количество занятий на каждом из перечисленных факультетов, но и их содержание. Это не позволяет синхронизировать процесс обучения по факультетам в рамках недельного расписания занятий и использование традиционного материально-технического обеспечения, то есть таблиц и наборов микропрепаратов. В связи с этим совершенствование качества учебно-методической работы в условиях кредитно-модульной системе представляется крайне актуальной задачей.

Основные аспекты повышения ее качества и оптимизации охватывают селый ряд мероприятий, среди которых первостепенная роль принадлежит этапу планирования учебного процесса в соответствии с современными требованиями. Поэтому методические заседания кафедры перед началом каждого семестра посвящены обсуждению учебных рабочих программ, учебно-тематических планов лекций и практических занятий.

Результаты исследований. В ходе исследования установлено, что для решения вопроса об оперативной коррекции материально-технического обеспечения учебного процесса на кафедре создана обширная база мультимедийных демонстрационных средств для лекционного курса и практических занятий: это компьютерные изображения таблиц по всем темам занятий, тематические презентации по всем занятиям и лекциям, компьютерные изображения учебных микроскопических

препаратов. Все это позволяет оперативно изменять характер проведения занятий.

Особое внимание обращается на широкое внедрение элементов самостоятельной работы студентов, проведение практической части занятия, а также на разработку приемов контроля знаний студентов, адекватных современным технологиям обучений.

Кроме того, на этапе контроля по темам курса гистологии широко используется компьютерное тестирование, которое позволяет не только повысить объективность результатов оценки уровня знаний, но и усилит роль самоконтроля и самокоррекции в учебной деятельности студентов.

Выводы. Таким образом, оптимизация учебно-методической работы на кафедре медисинской биологии и гистологии ведется в трех основных направлениях:

1. Усиление компонента самостоятельной работы студентов;
2. Использование методов и приемов проблемного обучения;
3. Внедрение инновационных методик обучения.

ИННОВАЦИОННОЕ МЕТОДИЧЕСКОЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЕ ОБУЧЕНИЕ В МЕДИСИНСКОМ ВУЗЕ, КАК СРЕДСТВО ПОВИШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ ГИСТОЛОГИИ

А.Т.Ашуров, Х.С.Худойназаров

Терmezской филиал Ташкентской медисинской академии
Кафедра медисинской биологии и гистологии

Сел исследований. Селю работу было осенка рол инновационных методов как средство повышения эффективности преподавания гистологии. Это побуждает к разработке новых методических приёмов и применению инновационных технологий.

Материал и методы исследований. Учебно-методическая работа является одним из основных компонентов деятельности кафедры медисинской биологии и гистологии ТФ ТМА, направленным на внедрение в учебный процесс передового методического опыта.

Для решения вопроса об оперативной коррекции материально-технического обеспечения учебного процесса на кафедре создана обширная база мультимедийных демонстрационных средств для лекционного курса и практических занятий: это компьютерные изображения таблиц по всем темам занятий, тематические презентации по всем занятиям и лекциям, компьютерные изображения учебных микроскопических препаратов. Все это позволяет оперативно изменять характер проведения занятий.

Результаты исследований. Установлено что, особое внимание обращается на широкое внедрение элементов самостоятельной работы студентов, проведение практической части занятия, а также на разработку приемов контроля знаний студентов, адекватных современным технологиям обучений.

Наибольшее внимание уделяется внедрению методов активизации обучения. В этой связи развитие сознательной активности студентов, их способностей к творческому мышлению - одна из важнейших задач организаций учебно-методической работы в процессе преподавания гистологии. На кафедре используются различные приемы активизации познавательной деятельности студентов на всех этапах образовательного процесса.

На этапе предъявления теоретической информации в лекционном курсе используются проблемный и аналитический методы, ориентация на клинические дисциплины, подбор современного иллюстративного материала.

Следует отметить, что значительная роль в учебно-методической работе отводится организаций этапа самостоятельной работы студентов, которая способствует развитию «гистологического» мышления студентов. В ходе самостоятельной работы не только формируются и закрепляются знания, умения и навыки, но и возникает интерес к творческой работе, вырабатывается способность эффективно решать профессиональные задачи.

Выводы. Таким образом, комплексный инновационный подход к преподаванию гистологии включает:

1. Мультимедийное обеспечение лекций и практических занятий с дифференциальной визуализацией тканевых и клеточных структур на светооптическом, электронномикроскопическом и молекулярном уровнях организации.
2. Визуализацию в ходе практического занятия реальных микроскопических препаратов с помощью видеосистем, транслирующих их изображение на экран.
3. Рейтинговый контроль знаний у студентов путем компьютерного тестирования.
4. Заключительный (экзаменационный) тестовый и письменный контроль.

Итак, разработка и внедрение профессионально ориентированной комплексной методической системы подготовки по гистологии студентов позволяет не только повысить эффективность обучения, но и способствует формированию профессиональных компетенций врача.

TRAVMATOLOGIYA VA ORTOPEDIYA MAGISTRATURA YO‘NALISHINI O‘QITISHDA O‘QUV MATERIALLARINI O‘ZLASHTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

*N.Z.Nazarova, A.Y.Baxodirov
Toshkent tibbiyot akademiyasi*

Muammoning dolzarblii: Tayyor algoritmlar va o‘rganilgan qoidalar bo‘yicha ta’lim olish, standart masalalarini yechish qobiliyat, talaba o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan ta’lim mazmunining faqat bir qismidir. Hayot davomida kuzatiladigan haqiqiy vaziyatlar, mashg‘ulot davomida olib borilgan ko‘nikmalardan farq qiladi va shifokordan mustaqil ravishda yechim topish, o‘zi uchun eng yaxshi yo‘lni tanlash qobiliyatini talab qiladi. Shu sababli, magistratura ta’lim o‘quv jarayoni va amaliyotda o‘zlashtirgan zamonaviy bilim va amaliy ko‘nikmalar o‘rtasidagi uchraydigan tafovut muammolarni mustaqil tarzda hal qilishi zamonaviy ta’limning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Maqsad: Muammoli va kompetensiyaga asoslangan o‘qitish usullarini joriy etish orqali fan bo‘yicha o‘quv materialini o‘zlashtirish samaradorligini oshirish.

Vazifalar: Tibbiyot OTMlarida o‘qitish usullarini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalariiga umumiy nuqtai nazardan yondoshish; Fanda an’anaviy o‘quv jarayonida mavjud o‘qitish usullarining kamchiliklarini aniqlash; Muammoli ta’lim texnologiyasidan foydalangan holda “Travmatologiya va ortopediya” modulini ishlab chiqish.

An’anaviy o‘qitishning asosiy kamchiliklari - talabalarning “ta’lim infantilizmi; ma’lumotni topish va tahlil qilish uchun past motivatsiya; asosiy ma’lumot manbai sifatida o‘qituvchining roli hali ham katta; o‘quv jarayonining past moslashuvchanligi; amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun qisqa vaqt va simulyatorlarning yetishmasligi. Muammoli ta’lim - muammoli ta’lim konsepsiysi talabalarning aqliy rivojlanishi uchun zaxiralarni qidirishni o‘z ichiga oladi: ijodiy fikrlash qobiliyati va mustaqil kognitiv faoliyat. Muammoli ta’limning mohiyati o‘qituvchi tomonidan talabalar uchun muammoli vaziyatlarni tashkil etish, ushbu vaziyatlardan xabardor bo‘lish, talabalar va o‘qituvchilarning birgalikdagi o‘zaro munosabatlari jarayonida talabalarning maksimal mustaqilligi va o‘qituvchining umumiy rahbariyatidan iborat. O‘quv jarayoniga muammoli ta’lim texnologiyasini joriy etish talabalarning yangi bilim va ko‘nikmalarni egallashini sezilarli darajada yaxshilashi, mavzuni o‘qitishda muammoga yo‘naltirilgan darsning motivatsion tarkibiy qismini sezilarli darajada oshirishi va talabalar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirishni yaxshilashi, talabalarni ilmiytadqiqot faoliyatini rag‘batlantirish uchun ilmiy-tadqiqot ishlarini nazariy seminarlarga kiritish tavsiya etiladi.

Xulosa: Muammoli ta’lim magistratura talabalari tomonidan fanni samarali o‘zlashtirishning eng maqbul usullaridan biridir. O‘z ijodiy faoliyati orqali mustaqil ravishda bilim olish, o‘qishga yuqori qiziqish, samarali fikrlashni rivojlantirish, kuchli va samarali o‘quv natijalarga erishish kabi asosiy afzallikkardan iborat.

TIBBIY TA'LIM FANLARINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

*Sharipova Farida Salimjanovna
Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali*

Mavzuning dolzarbliji. Mustaqillik yillarda mamlakatimizda aholi salomatligini yaxshilash borasida yaratilgan shart-sharoitlar, ayniqsa, yosh avlod tarbiyasi bilan bog'liq keng qamrovli sayi harakatlar yildan yilga takomillashib, o'z samarasini berish bilan birga, tibbiyot tizimida ham katta o'zgarishlarga mustahkam zamin xoziralamoqda. Tibbiy ta'lif tizimida ta'lif-tarbiya jarayonida yangi pedagogik texnologiyalari va o'qitishning interfaol metodlarni joriy etish va samarali foydalanish ta'lif oluvchi yoshlari faolligini oshishiga yordam beradi.

Maqsad va vazifalar. Interfaol metodlar faol metodlarning zamonaviy ko'rinishi, deb ham qaraladi. "Interfaol" so'zi (inglizcha «inter» - o'zaro, «act» - harakat qilmoq), kim bilandir birlgilikda harakat qilish, hamkorlik qilishni anglatadi. Interfaol metodlar deganda ta'lif oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lif jarayonining markazida ta'lif oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Faol metodlardan farq qilib, dars jarayonida talaba o'qituvchi va talabalar bilan o'zaro hamkorlikda bo'ladi. O'qituvchi dars jarayonini tashkil etish va talabalarni qo'yilgan dars maqsadlariga erishishiga yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi. O'qitishning interfaol metodlari talabalarning tanqidiy fikrlash, mustaqil ishlash, vaziyat va sabablarni tahlil qilish. Interfaol o'qitishning asosiy mohiyati shundaki, o'qitish jarayonida barcha talabalar bilish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi, ular muhokama etilayotgan muammolarni, voqeja va hodisalarning rivojini tushunadi, muammoli vaziyatlarni anglaydi, uni hal etish yo'llarini izlab, eng maqbul variantni tavsiya etadi.

Natija. Interfaol metodlarning qo'yidagi shakllaridan tibbiy biologiya fanini o'qitishda keng ko'lamda foydalanilmoxda:

"Keys-stadi" metodi. «Keys-stadi» - inglizcha so'z bo'lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «study» – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Keysda vaziyat sifatida ochiq axborotlardan yoki aniq voqeja-hodisadan tahlil uchun foydalanish mumkin. Mazkur metod muammoli ta'lif metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni o'rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Agar u o'quv jarayonida ma'lum bir maqsadga erishish yo'li sifatida qo'llanilsa, metod xarakteriga ega bo'ladi, biror bir jarayonni tadqiq etishda bosqichma bosqich, ma'lum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni o'zida aks ettiradi .

"Keys-stadi" metodining o'ziga xos xususiyatlari: izlanishga doir faoliyatning mavjud bo'lishi; jamoaviy va guruhlarda o'qitish; individul, guruhli va jamoaviy ish shakllari integratsiyasi; xilma-xil o'quv loyihibarini ishlab chiqish; muvaffaqiyatga erishish uchun ta'lif oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatini rag'batlantirish; keys harakatlari o'z ichiga quyidagilar savollar bo'yicha faoliyatni qamrab oladi: kim? (who?), qachon? (when?), qayerda? (where?), nima uchun? (why?), qanday?/ qanaqa? (how?), nima? (natija) (what?).

Namuna. Tibbiyot parazitologiyasi va asosiy bo'limlari mavzusida keys

| Ish bosqichlari | Faoliyat shakli va mazmuni |
|-----------------|----------------------------|
|-----------------|----------------------------|

| | |
|--|--|
| 1-bosqich: parazitologiya mavzusidagi video ko'rsatiladi | -yakka tartibdagi mavzuga doir videoni ko'radi; -tibbiyo parazitologiya bo'limlari bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); -tibbiyot protozoologiyasi tibbiyot gelmentologiya va araxnoentomologiya xaqida ma'lumotlarni umumlashtirish; - bo'limlarni o'rganib tahlil qiladi; -muammolarni aniqlash |
| 2-bosqich: mavzuga doir savollar beriladi va 3 ta guruxchaga ajratiladi? | uchta kichik guruxga bo'linib savollar beriladi - tabiiy manbali parazitar kasalliklar aniqlang? - leyshmaniyoz nega janubiy O'zbekistonda uchraydi? -Qachon parazitlarni devastasiya qilish mumkin? |
| 3-bosqich: ilmiy ma'lumotlar adabiyotlar asosida guruxchalardagi talabalar muammoni o'rganadi | -tabiatda tabiiy manbali kasalliklar ko'p uchraydi: masalan tripanasomoz leyshmanioz; - muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; Tabiiy manbali parazitlar rivojlanishida odam ishtirok etmasligi xam mumkin. |
| 4-bosqich: kichik gurux a'zolari individual tarzda xam muammolarni yechimini taqdim etadi | ✓ mavzu muammolarini talabalar bayon etib berishadi videodagi ma'lumotlarni tushinishib bilimlarini mustaxkamlaydi |

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi Bu metod talabalarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo'yicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo'llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi: ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi; ta'lim oluvchilarga mavzuga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda); ta'lim oluvchilar mazkur tushunchalar qanday ma'noni anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar; belgilangan vaqt yakuniga yetgach, o'qituvchi berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini o'qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi; har bir ishtirokchi berilgan to'g'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: “Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

| Tushunchalar | Sizningcha, bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi? | Qo'shimcha ma'lumot |
|-----------------|--|---|
| Antropogenetika | Odam genetikasini o'rganuvchi fan | Antropogenetikani tibbiyotdagi ahamiyati |
| Dermatoglifika | Teridagi naqshlarni o'rganuvchi fan | Irsiy kasalliklarni aniqlashda |
| Geneolgik usul | Avlodlar shajarasini tuzish usuli | Shajara tuzish orqali irsiy kasalliklar bilan tug'ilishni oldindan aniqlash |
| Immunogenetika | Qondagi antigenlar immun tizimi o'rganiladi | Transpontologiya muammolarini yechishda ahamiyatga ega |

TIBBIY BIOLOGIYANI O'QITISHDA INNOVASION TA'LIM METODIKASI

*Sharipova F.S. Qo'ng'irotova A.I.
Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali*

Mavzuning dolzarbliji. Talabalarni tibbiy biologiya faniga bo'lgan qiziqishini orttirish va intellektual rivojlanishini ta'minlashda, ularni mantiqiy va ijodiy fikrlashga yo'naltiradigan intellektual o'yinlardan foydalanish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ta'lrim jarayonida intellektual o'yinlardan foydalanish talabalarni mustaqil fikrlashga, ijtimoiyma'naviy tafakkurining kuchayishiga yordam beradigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga qo'llash orqali, ularni ilm olishga qiziqishlarini ortishiga, bilim, ko'nikma va malakalarini chuqr egallashga katta imkoniyat yaratadi.


Maqsad va vazifalar. Tibbiy biologiyani o'qitishda intellektual o'yinlardan foydalanishda, uning umumiy mezoni aniq va puxta o'ylangan shuningdek, maqsadga yo'naltirilganligidadir. Intellekt – psixologik mexanizmlar tizimi bo'lib, shaxs ichida atrof-olamning adekvat modelini (manzarasini) tuzish imkoniyatiga xizmat qiladi va unda o'z hulqi, faoliyatini maqbul tashkil etish, o'zining shaxsiy ehtiyojlariaga aniq obektiv talab yaratish hamda rejali tartishga asoslanadi.

Natija. Ta'lrim jarayonida intellektual o'yinlardan foydalanishda pedagogik texnologiyaning vositali yo'naltirilganligi, uning imkoniyatlarini keng ochib beradi. Bu o'rinda, ta'larning tashkiliy jihatlari, maqsadga erishish usuli sifatida qaraladi. Tibbiy biologiyani o'qitishda intellektual o'yinlardan foydalanish, talabalarning belgilangan maqsad yo'lida harakat qilishlarini uzluksiz nazorat qilishni ko'zda tutadi. Mazkur jarayon ta'lrim tizimining yuqori darajali imkoniyatlarini ochib beradi.

Ularga asoslangan holda tibbiy biologiyani o'qitishda intellektual o'yinlardan foydalanish uch bosqich asosida olib borilishni nazarda tutadi. **1-jadval**


| <i>Bosqichlar</i> | |
|--|--|
| <i>Birinchi bosqich</i> Tibbiy biologiyani o'qitishda intellektual o'yinlardan foydalanganda umumiy, ya'ni asosiy maqsadni belgilab olish. | <i>Ikkinchchi bosqich</i> Tibbiy biologiyani o'qitishda intellektual o'yinlardan foydalanishda real muayyan guruhlarga bo'lish va har bir guruh uchun asosiy maqsadni amalga oshirish yo'lida turli qiyinchiliklarni yengib borish. |
| <i>Uchinchi bosqich</i> Tibbiy biologiyani o'qitishda intellektual o'yinlardan foydalangan holda talabalarni bilim darajasini oldindan qisman baholash, ya'ni intellektual savollarga asoslangan holda bilim darajasini oshirib borish. | |

Bosqichlarning ishlab chiqilishidan ko'zda tutilgan maqsad, talabalarni fanga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttirish, bilish faoliyatini faollashtirish, ular o'rtasida o'zaro raqobatni yuzaga keltirish, o'qish jarayonidagi qiyinchiliklarni intellektual o'yinlar vositasida bartaraf etishdan iborat.



Intellektual o'yin turlari.

Yuqorida nomlari keltirilgan o'yinlarning har birining o'z qoidasi va o'tkazilish tartibi mavjud. Ularda teskari aloqaning mavjudligi va bevosita savol-javob-javobning to'g'riliqi turida tashkil etilishi, talabalar bilimini tezkor baholash, mantiqiy va ijodiy tafakkurini o'stirishga, tez va to'g'ri qaror qabul qilish qo'nikma va malakalarini orttirishga ko'maklashadi. Quyida «Tibbiy biologiya» Interfaol dasturiy vositalar elektron majmuasidan foydalanib, intellektual o'yinlarni o'tkazish metodikasini keltirishimiz, «Tibbiy biologiya» interfaol dasturiy vositalar elektron majmuasining umumiy ko'rinishi 1-rasmida keltirilgan.



I-rasm. «Tibbiy biologiya» interfaol dasturiy vositalar elektron majmuasining umumiy ko'rinishi.

Xulosa Tibbiyot oliy ta'lif muassasalarida tibbiy biologiya o'qitishda interfaol dasturiy vositalardan samarali foydalanishni amalga oshirish mexanizmi bevosita, uni tashkil etishni takomillashtirish, metodik ta'minotini mustahkamlashni talab etadi. Shuningdek, talabalarni Interfaol dasturiy vositalar bilan ishlash ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirish natijasida, ularning axborot kompetenligini rivojlantirishga erishiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Tolipova J.O. A.T.G'ofurov "Biologiya o'qitish metodikasi" T.: 2012 .
2. Tolipova J.O. Biologiya o'qituvchisining ilmiy-metodik tayyoragarligi darajasini orttirish nazariyasi va amaliyoti. Avtoref. dis... ped. fan. doktori. – T.: TDPU, 2006.
3. Urazova M.B. Sovrshenstvovaniye texnologii podgotovki budushego uchitelya professionalnogo obrazovaniya k proyektirovochnoy deyatelnosti: Avtoref. dis. ... dokt. ped. nauk. – Tashkent: TGPU, 2015
4. Ishmuxamedov R. J., Yuldashev M. Ta'lif va tarbiyat ainnovation pedagogik texnologiyalar. – T. : —Niholl nashrieti, 2013,2016. –279b.
5. Karimova V. A., Zaynutdinova M. B. Informasionniye sistemi. – T. : Aloqachi,2017. - 256 str.
6. Karimova V. A., Zaynutdinova M. B., Nazirova E. SH., Sadikova SH. SH. Tizimli tahlil asoslari. – T. : O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti,2014. –192 b

2-SHO 'BA

FUNDAMENTAL FANLARNI O'QITILISHIDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALAR : DOLZARB MUAMMOLAR, YUTUQLAR VA INNOVATSIYALAR

TEACHING MEDICAL COMPOUND WORDS WITH INTERACTIVE METHODS

*Ermatova .R.O.-Senior teacher Termez branch Tashkent medical academy
Xolmatova. D.B.-Student, Termez State Pedagogical Institute.*

The main goal of the interactive method is to create an environment for active, free thinking of the student by creating the most favorable conditions for the learning process. It demonstrates its intellectual potential, and enhances the quality and effectiveness of learning. The interactive lesson is organized in such a way that in the process no student is left out, that is, they have the opportunity to openly express their views on what they see, know and think. Not every opinion expressed by students, whether it is right or wrong, will be criticized. They can exchange knowledge and ideas. What do interactive methods include? Today, Methodists, trainers, and practical teachers of our country offer various forms and apply them in practice. Working in pairs; Working in small groups; Aquarium; Incomplete sentences ;Mental attack ;Brown movement; Tree solution ;I speak on my own behalf; Role-playing games; Press method; Take your position; Discussion; Debates; The following are the most effective ways to engage your students through interactive teaching methods and interactive teaching styles: Brainstorming is one of the interactive teaching methods which demand

performance in group sessions. With this process, students are able to develop creative thoughts and ideas. The method helps learners to pull learn together.

NEUROLOGIA- the scientific study of the nervous system and the diseases that affect it. It is joined by two words :

NEURO-O-LOGIA. The vowel joining it is "o ". "NEURO" means-nerve "LOGIA" means-science , study.

TOMOGRAPHIA- imaging by sections or sectioning that uses any kind of penetrating wave. It is joined by two words:

TOMO-O-GRAFIA The vowel joining it is "o ". "TOMO" means- concerning to layer, layer in rentgennology "GRAPHIA" means-the process of recording.

Conclusion. I have came to the following conclusion. The theory of new pedagogical technologies allows the formation of compound words, allowing medical students to acquire through knowledge in a short period of time. Although initial experience has been gained in the application of new pedagogical technologies in the teaching of compound words, they do not adequately meet the requirements of the time. Development of theoretical and practical bases of the organization of teaching of compound words on the basis of interactive methods in medical universities provides efficiency of activity of these educational institutions

To sum up ,everyone has an understanding, resources and intrests which can be utilized teachers play an important role in assesing learners, engaging their understandings, correcting misconceptions. It is a responsibility of teachers to put their full efforts to help students easily catch and perform well in class.

ZAMONAVIY TA'LIMDA IBN SINO TA'LIMOTINING O'RNI

**Biykuzieva A.A., Xo`jaxonova X.I.
Toshkent Tibbiyat Akademiyasi, Toshkent, O`zbekiston**

Abu Ali ibn Sino ta`lim va tarbiya xususida shunday fikr bildirgan: "Agar bolaning o`smirligidan manaviy olami boy, ruhiyati tetik va kelajak uchun foydali yetuk inson bo`lishini xohlar ekansiz, avvalo bolaning ta`lim tarbiya nazariyasiga alohida e`tibor bering". Darhaqiqat hozirgi kunda ham dolzarb masala bo`lib kelayotgan ilm, tarbiya haqida fikr yuritar ekanmiz beixtiyor Buyuk mutaffakirimizning axloqiy hislatlar haqidagi ta`rifini esga olamiz:

mo'tadillik– tan uchun zaruriy oziq va xulq me`yorlariga to`g`ri kelmaydigan ishlarni qilmaslik;

saxiylik– yordamga muhtoj kishilarga ko`maklashuvchi insoniy quvvat;

chidamlilik –inson o`z boshiga tushgan yomonliklarga bardosh beruvchi quvvat;

aqlilik– biror ishni bajarishda shoshma-shosharlikdan saqlovchi quvvat;

ziyraklik– narsalar va hatto harakatlarning haqiqiy ma`nosini tezlik bilan tushunishga yordam beruvchi quvvat.

Olim kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan ma`rifatni egallashga da`vat etadi. U bilim olishga, bolalarni o`qitish va tarbiyalashga katta ahamiyat berib, "Tadbir ul manozil" asarining maxsus bo`limini shu masalaga bag`ishlaydi va ta`limda quyidagi tomonlarga rioya etish zarurligini takidlaydi:

-bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo`ymaslik; -ta`limda yengildan og`irga borish orqali bilim berish; -olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo`lishi; -o`qitishda jamoa bo`lib makkablarda o`qitishga e`tibor berish; -bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini inobatga olish; -o`qitishni jismoniy mashqlar bilan qo`shib olib borish.

Shubhasiz alloma keltirib o`tgan ushbu talablar hozirgi davr ta`lim tamoyillariga ham mos

kelishi bilan qimmatlidir.

Talabaga bilim berish o`qituvchining mas`uliyatli burchidir. Shunga ko`ra Ibn Sino o`qituvchining qanday bo`lishi kerakligi haqida fikr yuritar ekan, shunday yo`l-yo`riqlar beradi. Bular quyidagilardan iborat:

- bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo`lish;
- berilayotgan bilimning talabalar qanday o`zlashtirib olayotganiga e`tibor berish;
- ta`limda turli metod va shakllardan foydalanish;
- talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;
- fanga qiziqtira olish;

Bu kabi tamoyil va talablarni hozirgi zamonaviy interfaol o`qitish uslublarida ham uchratish mumkin, masalan: o`qitishda jamoa bo`lib ishlash, bolalarni qiziqishlaridan kelib chiqqan holda dars jarayonini tashkil qilish va albatta samarali natijalarga erishish uchun dars davomida turli pedagogik texnologiyalardan foydalanishni tarixiy va zamonaviy uslublarni integratsiyasi desak hato qilmaymiz.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki Buyuk Olimning ta`limga-tarbiyaga oid ko`plab asarlari hali-hanuz to`liq o`rganilmagan bo`lib, ularni o`rganish va amalda keng foydalanish zamonaviy pedagogikada yanada yangi q`rralarni ochilishiga yordam beradi.

TIBBIYOT OLIV TA`LIM TASHKILOTI TALABALARINING KREATIV QOBILIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISHGA YO`NALTIRILGAN O`QITISH TEXNOLOGIYASINI EKSPERIMENTAL APROBATSİYA QILISH NATIJALARI

*Xursanov Sherzod Ulaboyevich
Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali assistenti*

Annotatsiya

Ushbu maqolada tibbiyot oliy ta`lim tizimida talabalarga amaliy ko`nikmalarni qadama-qadam bajarishni o`rgatish jarayoni va metodikasida talabalarning kreativ qobiliyatlarini takomillashtirishga yo`naltirilgan o`qitish texnologiyasini eksperimental aprobatsiya qilish natijalariga alohida to`xtalgan. Talabalarning kreativ qobiliyatlarini takomillashtirish bugungi kundagi dolzarb muammolardan biri sanaladi. Shu sababli maqolamizda talabalarning kreativ qobiliyatlarini takomillashtirishda e`tiborga olinishi lozim bo`lgan o`qitish texnologiyasini eksperimental aprobatsiya qilish natijalari ochib berilgan.

Kalit so`zlar: Aprobatsiya, Fenomen, Motiv.

Aprobatsiya (lot. approbatio – tasdiqlash, ma`qullash) – 1) tahlil qilish va tekshirish asosida rasmiy ravishda ma`qullash, tasdiqlash; masalan: ilmiy asarni aprobatsiya qilish.[1]

Kreativ qobiliyatlarini takomillashtirishiga yo`naltirilgan o`qitish texnologiyasini ishlab chiqish va uning samaradorligini aniqlash uchun tadqiq qilinayotgshan tushuncha shakllantirilganligining dastlabki darajasini aniqlash zarur. Buning uchun biz qayd etuvchi bosqichda quyidagi metodlarni o`z ichiga olgan tadqiqotni o`tkazdik: anketa so`rovnomasi, to`g`ri, bilvosita va jalb etilgan kuzatuv, ekspert baholash, intervyu olish, suhabatlar, talabalarning ijodiy ishlarini tahlil qilish, talabalarning mashg`ulotlarini, madaniy-ommaviy tadbirlarini kuzatish, talabalarning amaliy ishlarini, test topshiriqlarini, referatlarini tahlil qilish. Eksperiment davomida reprezentativ ma`lumotlarni olish uchun tadqiqotga ekspertlar jalb qilindi. Ekspertlar sifatida talabalarni turli mutaxassisliklarga tayyorlovchi turli fanlarning o`qituvchilari, bo`limlarning rahbarlari jalb etildi.

Eksperimental ishning birinchi bosqichining maqsadi ajratib ko`rsatilgan mezonlar va ko`rsatkichlarga mos ravishda, shuningdek talabalarning tadqiq qilinayotgan fenomen, uning farqli jihatlari to`g`risidagi tasavvurlarini umumiylashtirishdan kelib chiqib, talabalarda kreativ qobiliyatlarini takomillashtirishning dastlabki darajasini aniqlashdan iborat bo`ldi.

Fenomen (yun.: *phainō* — „ko`rsataman“) deb har qanday kuzatiladigan hodisaga aytiladi. Kundalik hayotda esa bu atama kamdan-kam kuzatiladigan g`ayrioddiy hodisani anglatadi. Atamani zamonaviy falsafaga I.Kant kiritgan.[2]

FSO Akademiyasida o'tkazilgan qayd etuvchi eksperiment natijalari talabalarni tiplarga ajratishga asos bo'ldi va tibbiyotda axborot texnologiyalari mashg'ulotlarida talabalarning kreativ qobiliyatlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasini ishlab chiqish uchun foydalanildi.

Qayd etuvchi bosqichda empirik bazani birinchi, ikkinchi va uchinchi bosqich talabalari (215 kishi) tashkil qildi, eksperimental ishda esa 116 talaba ishtirot etdi. Qayd etuvchi bosqich tayyorlovchi, muolaja va yakuniy bosqichlardan iborat bo'ldi. Birinchi bosqichda kreativ qibiliyatlarini takomillashtirish muammosini shakllantirish maqsadida talabalar va o'qituvchilardan so'rovnama o'tkazildi. Har bir kishidan olingen muammolar ro'yxati quyidagi parametrlar bo'yicha tahlil qilindi: ta'riflarning nazariyligi; konkretlik – mavhumlik; mantiqiylilik – qarama-qarshilik; dolzarblilik; istiqbollilik; kasbiy ahamiyatlilik; originallik va nostandardlik. Bu oliv ta'lim tashkilotida talabalarning kreativ qobiliyatlarini takomillashtirish muammolarining ro'yxatini tuzishga yordam berdi va uning asosida qayd etuvchi eksperimentning muolaja bosqichi uchun asosiy so'rovnomalar ishlab chiqildi. So'rovnomalarni ishlab chiqishda ularga hamkasblarning bergan baholari hisobga olindi. Shuningdek ekspert baholandi, so'ngra tuzatishlar kiritildi. Dastlabki so'rovnama eng ko'p e'tiroz olgan topshiriqlarni chiqarib tashlab, qaytadan shakllantirish imkonini ham berdi (1-ilovaga qarang).

Muolaja bosqichida talabalarni so'rovnama qilish so'rovnama minstruksiyasiga qat'iy rivoja qilingan holda o'tkazildi, ushbu ishni bajarishga ijobiy munosabatda bo'lism uchun kulay sharoitlar yaratildi.

So'rovnomadan so'ng amaliy ko'nikma bajarish usullari ma'lumotlari miqdoran talqin qilinib, har bir ko'rsatkichga ekspert baholash metodi bilan salmoq qiymati berildi. Natijada o'z mazmunida talabalarning tibbiyotda axborot texnologiyalari fani bo'yicha bilim va ko'nikmalarini; ijodkorlikka umumiyo moyilligini; ijodiy fikrlash va ijodkorlik faoliyatiga qobiliyatining mavjudligini; o'quv axboroti bilan ishlash malakasini, shuningdek talabalarning tibbiyotda axborot texnologiyalarini o'rganishga munosabatini; o'quv ishida qo'yilgan muammolarni hal qilishda yetakchi qadriyatli-motivasion munosabatlar, an'analar va amaliy qobiliatlarni o'z ichiga oluvchi so'rovnama natijalarining modeli ishlab chiqildi. "Excel" dasturi yordamida empirik ma'lumotlarni statistik ishlab chiqish uchun amaliy ko'nikmalarni bajariligidhiga ko'ra ma'lumotlarning miqdoriy ko'rsatkichlarini o'n balli shkala bo'yicha bir o'lchamli shkalalashtirildi va ular tahlil qilindi. Natijalar qayd etuvchi eksperimentning keyingi natijaviy bosqichida foydalanildi. Bu bosqichda xulosalar shakllantirildi, so'rovnama natijalarining ishonchligi aniqlashtirildi, turli guruhlardagi talabalarning ularning kreativ qobiliyatlarini takomillashtirish darajasiga mos ravishda matematik tavsiflash maqsadida tahlil qilindi.

Dastlabki holatni tashxis qilish natijalarini tahlil qilish yakunida talabalarda kreativ qobiliyatlarini takomillashtirish haqida fikr yuritish imkonini beruvchi quyidagi ko'rsatkichlar aniqlandi: shaxsnинг motivasion-ijodiy faolligiga va yo'naltirilganligi; umumilmay va kasbiy sohadagi fundamental bilimlar darajasi; ijodiy fikrlash sifatlarining rivojlanganligi; shaxsnинг ijodiy faoliyatni uchun zarur bo'lgan his-tuyg'u-iroda sifatlarining darajasi; ijodiy faoliyatda o'z-o'zini baholash va o'z-o'zini tahlil qilish.

Empirik materialda ajratib ko'rsatilgan ko'rsatkichlar quyidagicha taqdim etilgan.

1. Talabalarning oliy ta'lim tashkilotidagi motivasion-ijodiy faolligining va yo'naltirilganligi.

Bu ko'rsatkichning o'quv faoliyati nafaqat amallar bilan, balki ularni chaqiruvchi motivlar bilan ham aniqlanishi sababli tanlangan. Shuning uchun ham talabalarda kreativ qobiliyatlarini takomillashtirishni tashxis qilish uchun motivlarni aniqlash muhim. Motiv – bu o'ziga faoliyatni undaydigan, yo'naltiradigan moddiy yoki g'oyaviy predmetdir, uning ma'nosi shundan iboratki, motivlar yordamida sub'ektning ma'lum ehtiyojlarini qondiriladi [3].

Bundan talabaning o'quv faoliyatining natijalari avvalo uning motivlarining

yo‘naltirilganligiga bog‘liq ekanligi kelib chiqadi. Shunday qilib, kreativ qobiliyatlarini takomillashtirish uning motivlarining shakllantirilganligi va yo‘naltirilganligi bilan aniqlanadi. Tibbiyot Oliy ta’lim tashkilotida “Tibbiyotda axborot texnologiyalari” o‘quv fanining mazmunini o‘zlashtirish davridagi asosiy motivlar 2.1-jadvalda keltirilgan.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, aloqachi-shifokor mutaxassisligini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan kasbiy motivlar eng stabil hisoblanadi:

57 % talabalar akademiyaga o‘z kasblarining ustasi bo‘lish uchun kelishgan va ikki yil o‘qigach ulardan shunchasi o‘zlarining javoblarida kreativ qobiliyatlarini takomillashtirishning ahamiyatini ta’kidlamoqdalar. Shu bilan birga talabalarning ko‘pchiligi muammolarning yechimini ijodiy usul bilan umumiyligini qo‘yishga shaxsiy qobiliyatga ega ekanligi, turg‘un konstruktiv, operativ (tezkor) va bashorat qilishga oid fikrlashga egaligi hamda qo‘yilgan muammolarni shaxsan pozitiv qabul qilishlari bilan ajralib turadilar.

Oliy ta’lim tashkilotida talabalarning kreativ qobiliyatlarini takomillashtirish motivlarini batafsil qilish shuni ko‘rsatdiki, 47,41 % talabalarda tibbiyotda axborot texnologiyalari fanini o‘rganish kursini tugatgach ushbu qobiliyatlarini takomillashtirish motivlari bo‘lajak kasbiy yo‘nalishlari bilan bevosita bog‘liq emas ekan, buning sababi tibbiyot oliy ta’lim tashkilotida kreativ qobiliyatlarini takomillashtirish muammosi keyingi o‘quv motivasiyasini qo‘llab-quvvatlashning shaxsiy rivojlanish muammosiga aylanishida ekan.

2.1-jadval

Tibbiyot oliy ta’lim tashkiloti talabalarida “Tibbiyotda axborot texnologiyalari” o‘quv fanini o‘rganish jarayonida motivlarning shakllanish dinamikasi (116 nafar respondent)

| Motivlar | O‘qishning boshida soni | | O‘zlashtirishdan keyin soni | |
|--|-------------------------|-------|-----------------------------|-------|
| | Odam | % | Odam | % |
| Kasbiy (tibbiyot oliy ta’lim tashkiloti talabalarini kasbiy tayyorlanish istagi) | 67 | 57,75 | 70 | 60,34 |
| Bilishga oid (yangi bilim olishga qiziqish, ko‘proq bilim olish) | 63 | 54,31 | 71 | 61,24 |
| Prakmatik (kelajakda yaxshi maosh olish va yaxshi ishga ega bo‘lish) | 60 | 51,72 | 55 | 47,41 |
| Ijtimoiy (yaxshi baho olishga, birinchi bo‘lishga, atrofdagilar oldida obro‘ga ega bo‘lishga intilish) | 57 | 49,13 | 53 | 45,68 |
| Jazodan qochish (yomon baho olishdan qochish istagi, ottonalar o‘qishga majbur qilishadi) | 54 | 46,55 | 60 | 51,72 |

Eksperimentning qayd etuvchi bosqichi talabalarida o‘quv faoliyati motivasiyasi zaif, ba’zan esa tibbiyotda axborot texnologiyalari fanini o‘rganishga salbiy munosabat borligini aniqlash imkonini berganligini ta’kidlash lozim. Buni ba’zi talabalar yetarlicha bilimga ega emasliklari, shuningdek ishga ijodiy munosabatning va o‘z-o‘zini rivaojlantirishga intilishning yo‘qligi bilan tushuntirish mumkin. Bu tibbiyot oliy ta’lim tashkilotida mustaqil ishslashning ulushi muktabga nisbatan ancha ortishi, ko‘pchilik talabalar esa kreativ qobiliyatlarini yetarlicha takomillashmaganligi sababli bunday hajmni eplay olishga tayyor emasliklari bilan tushuntiriladi.

Shundan kelib chiqib, konkret fanlarni o‘rganish jarayonida talabalarning motivasion-qadriyatlari yo‘nalishlarini hisobga olish zarurligi haqidaxulosa chiqarish mumkin. O‘qituvchi kreativ qobiliyatlarini takomillashishi uchun avvalo talabaning tibbiyot oliy ta’lim tashkilotiga moslashish davrida ularni hisobga olishi zarur, chunki o‘qish jarayonida har bir alohida olingan talabaning konkret o‘qish motivlari mazmun jihatidan har doim ham yaxshi tomonga o‘zgaravermaydi. Demak, o‘qituvchidan o‘lchanayotgan ko‘rsatkich dinamikasini kuzatish imkonini beruvchi motivlarni tashxis qilish, shu bilan shaxsning kasbiy tayyorligining optimal ko‘rsatkichlarini rivojlantirishga ta’sir qilish talab etiladi.

Bu xulosa shakllantiruvchi eksperiment natijalari bilan tasdiqlanadi. Masalan, eksperimental guruh talabalarining bilish motivasiyasi darajasi oshdi (o‘qitish boshida 54,2 % bo‘lgan bo‘lsa, oxiriga kelib 60,5 % ga yetdi). Ijodiy faollik, tibbiyot sohasidagi tibbiy-biologik faoliyati o‘rganilayotgan mamlakatga bo‘lgan qiziqishni qondirishga, o‘quv sohasidan tashqarida tibbiyotda axborot texnologiyalariga oid bilim va malakalarini kengaytirishga intilishda, o‘quv faoliyatida muammolarni qo‘yishda va hal qilishda, o‘rganilgan mavzular bo‘yicha o‘quv loyihibalarini bajarishda faol ishtirop etishda namoyon

bo'ldi.

Shunday qilib, tibbiyatda axborot texnologiyalarini o'rghanish jarayonida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda talabalarning ijodiy faoliyatga motivasion-qadriyatli tayyorligining shaxsiy darajasini hisobga oluvchi o'qitish texnologiyasi talab qilinadi. Bunday texnologiyani amalga oshirishga akmeologik yondoshuvning qo'llanilishi kasbiy va shaxsiy rivojlanish jarayonlarini hamda shaxsning ijodiy salohiyatini yo'lga qo'yish asosida kasbiy mahoratga erishish yo'llarini birlikda qarab chiqish imkonini beradi.

«Akmeologiya — zamonaviy yangi fan. Uning muhim vazifasi muayyan kasb-korlikning yuksak pog'onaga ko'tarilishidagi turli jihatlarini o'rghanishdir. Akmeologiyaning mazmun-mohiyati — insonning har bir kasb-hunarni bilim orqali chuqur egallashi, uning jamiyat rivoji, millat ravnaqi, turmush farovonligi hamda ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma'nnaviy-huquqiy jihatlariga ijobjiy ta'sirini kuchaytirishga xizmat qilishini chuqur anglashi, o 'z ijodiy faoliyatini, kasb-hunar sohasidagi burch va mas'uliyatini ado etishga sarflash maqsadida mukammallik va kamolotga erishishni o'rghanishdan iborat», deydi.[4]

Foydalilanigan adabiyotlar.

1. *O'zbekiston milliy ensiklopediyasi* (2000-2005), <https://uz.wikipedia.org/wiki/Aprobatsiya>
2. *O'zbekiston milliy ensiklopediyasi* (2000-2005), <https://uz.wikipedia.org/wiki/Fenomen>
3. Bolshoy tolkovi psixologicheskiy slovar pod red. B.G. Mesheryakova, V.P. Zinchenko. – S.Peterburg "prdym-Yevroznak", M."OLMA-PRESS" 2004 g. - 704 s.
4. Shayxova X.A. Ma'nnaviyat - kamolot ko'zgusi. — T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2009. 115-b.

TALABALARDA KREATIV QOBILIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISHGA YO'NALTIRILGAN O'QITISH TEXNOLOGIYASINI LOYIHALASHTIRISH

Xursanov Sherzod Ulaboyevich

Toshkent tibbiyat akademiyasi Termiz filiali assistenti

Annotation

Ushbu maqolada tibbiyat oliy ta'lim tizimida talabalarga amaliy ko'nikmalarini qadama-qadam bajarishni o'rgatish jarayoni va metodikasida talabalarning kreativ qobiliyatlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasini pedagogik loyihalashtirishga alohida to'xtalgan. Talabalarning kreativ qobiliyatlarini takomillashtirish bugungi kundagi dolzarb muammolardan biri sanaladi. Shu sababli maqolamizda talabalarning kreativ qobiliyatlarini takomillashtirishda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan o'qitish texnologiyasini pedagogik loyihalashtirish jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogik loyihalashtirish, o'qitish texnologiyasini loyihalashtirish, pedagogik maqsad, (TG) tanlangan guruh.

Talabalarda kreativ qobiliyatlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasini pedagogik loyihalashtirish – o'qituvchining murakkab va ko'p pog'onali faoliyati bo'lib, galdeg'i pedagogik faoliyatni umumiylar maqsadlardan didaktik masalaning hal qilinishini ta'minlovchi konkret metodlarga yaqinlashtiruvchi izchil bosqichlar qatori sifatida amalga oshiriladi.

O'qitish texnologiyasini loyihalashtirish, har qanday pedagogik faoliyat kabi, didaktik maqsadlarni asoslashdan boshlanadi. Umumiy ta'limmiy maqsadlar oliy ta'lim tashkiloti ta'lim tizimining maqsadlari hamda davlat ta'lim standartlarining mutaxassislarini tayyorlash darajasiga qo'yadigan talablari bilan belgilanadi. O'qitish maqsadlarini konkretlashtirishning ikkinchi darajasi oliy ta'lim tashkilotining o'quv dasturlarida aks etadi va mazmun jihatidan o'quv fanlarining sikliga, alohida o'quv fanlariga va ularning mavzuviy bo'limlariga mos keladi, uchinchi darajasi esa – konkret fan bo'yicha mashg'ulotlarining alohida mavzulari vazifalariga mos keladi. Ikkinchi va uchinchi darajalarda loyihalashtiruvchi o'qituvchi bevosita fan va uning bo'limlarining mazmuni ustida ishlaydi, alohida bo'limlarning o'quv maqsadlarining o'zaro bog'lanishlarini aniqlashtiradi, berilgan fan bo'yicha butun o'quv jarayonini tizimli loyihalashtiradi.

Oliy ta'lim tashkilotida o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqishning nazariy asoslarini

dastlabki tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, talabalarda kreativ qobiliyatlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan texnologik qurilgan modelning asosiy farqi uni tashkil qilishning mutaxassis tayyorlashning tashxisiy qo'yilgan maqsadlarga erishishga yo'naltirilganida ekan. Bu holda maqsadning qo'yilishi talabalarning tashxis qilingan malakalarini hisobga olgan holda hatti-harakatlarni bajarish usullarini rejalashtirishni va oldinlan ko'ra bilishni o'z ichiga oladi. Loyihaning maqsadi o'qitish uchun zarur bo'lgan hatti-harakatlarning, amallarning xususiyatini va tizimli tartibini belgilab beradi hamda o'quv vazifalarini hal qilishda talabaning malakalarini va o'quv hatti-harakatlarini integratsiyalash usuli sifatida namoyon bo'ladi. Texnologik modelda maqsadlarni tizimlashtirishning asosiy jihatlari tibbiyot oliy ta'lim tashkilotida mutaxassisni o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va psixologik tayyorlash bilan uzviy bog'liqlikda ajratib ko'rsatiladi, bu esa pedagogik maqsadlarni tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va ta'limiy vazifalarni, shuningdek talabani tibbiyot-kasbiy faoliyatga psixologik tayyorlash vazifalarini hal qilish vazifalari bilan birlikda belgilashni ko'zda tutadi.

Bu yearda pedagogik maqsadlar o'qitishning barcha jihatlari va komponentlarining bog'lanishlarini yagona mutaxassis tayyorlash tizimiga birlashtirishni ta'minlovchi asos sifatida namoyon bo'ladi [1]. Bunda ular nafaqat yo'naltiruvchi, balki rag'batlantiruvchi va kuchaytiruvchi vazifalarni ham bajaradi.

"Tibbiyotda axborot texnologiyalari" fani bo'yicha mavjud o'quv dasturlarining, oliy ta'lim tashkiloti ichidagi ba'zi mashg'ulotlar bo'yicha metodik ishlasmalarining tahlili shuni ko'rsatdiki, o'qituvchi ko'pincha o'z oldiga talabalar o'quv fanining mazmunini o'zlashtirishini, ma'lum bilimlarni egallashini va ulardan amalda foydalanishni o'rganib olishlarini maqsad qilib qo'yadi. Tahlil natijasida tibbiyotda axborot texnologiyalarini o'rganisho' amaliyotida oliy ta'lim tashkiloti o'qituvchilariga xos bo'lgan to'rtta eng tipik maqsadlarni qo'yish usulini ajratib ko'rsatdi:

1. Maqsadlarni o'rganilayotgan mazmun orqali belgilash: "yangi leksik materialni kiritish", "leksik materialni faollashtirish", "o'qishning tanishtirish, o'rganish, ko'rib chiqish va izlanish turlarini o'rgatish", "nazariy va amaliy ko'nikmalarini o'rgatish". Ko'rinish turibdiki, bu yerda maqsad o'quv materialining mazmunini belgilab beradi va talabalarning unga texnologik erishishga tayyorligiga nisbatan tashxisiy hisoblanmaydi.

2. Maqsadlarni o'qituvchining faoliyati orqali belgilash: "talabalarni yangi so'zlar bilan tanishtirish", "nazariy va amaliy ko'nikmalarini tizimlashtirish" va shu k. Maqsadni qo'yishning bunday usuli - "o'qituvchidan", uning xususiy faoliyati metodlariga tayanadi va uning oqibatlarini talabalarni o'qitishning real natijalarida ko'ra olish imkoniyatini bermaydi, chunki bu natijalar maqsadni qo'yishning bunday ususlida ko'zda tutilmagan. Maqsadni qo'yishning bunday usuli texnologik emasligi yaqqol ko'rinish turibdi.

3. Maqsadni talabani intellektual va operatsional rivojlantirishning ichki jarayonlari orqali qo'yilishi: "nazariy va amaliy ko'nikmalarini shakllantirish", "nazariy va amaliy ko'nikma sohasidagi malakalarini shakllantirish", va shu k. Bunday ifodalashda umumlashtirilgan ta'limiy maqsadlar fan darajasidagina ko'rinish turibdi. O'qitishga texnologik yondoshuv taraforlari maqsadni qo'yishning bunday usulini qo'llab-quvvatlamaydilar, chunki u talabalarning qo'yilgan maqsadga mos keladigan natijaga erishishlariga dastlabki tayyorligiga nisbatan tashxisiy tabaqalashtirilmagan.

4. Maqsadlarni talabalarning o'quv faoliyati orqali qo'yish: "nazariy va amaliy ko'nikma bo'yicha testlarni bajarish" va shu k. Bir qarashda, o'quv maqsadini bunday ifodalash mashg'ulotni rejalashtirishga va o'tkazishga aniqlik kiritadigandek tuyuladi. Biroq bu yerda ham eng muhim jihat - kutiladigan o'qitish natijalari va ularning oqibatlari, talabaning shaxsiy rivojlanishidagi siljishlar o'qituvchining nazaridan tushib qolmoqda.

O'quv maqsadlarini tashxisiy va shaxsga yo'naltirib qo'yish usuli, odatda, o'qitish texnologiyasini loyihalashtirishda amalga oshiriladi, yuqori instrumetalliligi bilan farq qiladi. U o'qitish maqsadlari talabalarning o'qituvchi yoki boshqa bir ekspert birdek tabaqalashtira oladigan hatti-harakatalri orqali ifodalangan natijalar orqali shakllantirilishidan iborat. O'qitish maqsadlarini tashxisiy qo'yishni amalga oshirish qanday usul bilan o'qitish

natijalarini hatti-harakatlar tiliga o'tkazish va bu o'tkazishning bir xilligiga erishish mumkin, degan savolga javaob berish zarurligini ko'zda tutadi.

O'qitishga majmuaviy-mazmuniy yondoshuvdan kelib chiqib, maqsad fanning mazmuni bilan uni amalga oshirishda qo'llaniladigan tashxis metodlari o'rtasidagi ichki bog'lanishni yaratadi. Bu maqsad sari borib, fanni o'qitish bosqichlarining mazmuni ochib beriladi, demak o'rganilayotgan fanning mazmuni ham ochib beriladi, bilimning "ichida" yotuvchi faoliyat maqsadlari esa o'rganilayotgan fanni o'zlashtirilishini tashkil qilishning bir-biriga yaqin (yoki o'xhash) fanlar bo'yicha umumiylar metodlar bilan aniqlanadi. Maqsadlarning o'qitish mazmuni bilan metodlari o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in sifatidagi didaktik mohiyati ham ana shundan iborat.

Shu bilan birga shaxsga yo'naltirilgan pedagogikada o'qituvchi bilan talabaning munosabati ikkita bir-biriga nisbatan ijtimoiy belgilangan faoliyatlar sifatida tashkil qilish va o'z-o'zini tashkil qilish birligida namoyon bo'lishi o'quv faoliyatini tashkil qilish uchun o'ziga xos xususiyatdir. Shundan kelib chiqib tadqiqotchilar ham o'qitish, ham o'qishning maqsadlarini belgilash jarayonlarining o'zaro bog'lanishlariga ikki jihatdan – talabalar tomonidan o'qituvchi qo'ygan tayyor maqsadlarini qabul qilinishi va shaxsda maqsadni belgilash faoliyatiga qobiliyatlarini takomillashtirish ning o'zaro bog'lanishlariga jiddiy e'tibor berdilar [2].

Tibbiyot oliy ta'lif tashkilotida mashg'ulotlar o'quv guruhida olib borilishi sababli pedagog o'qitish maqsadlarini belgilaganida talabalarning shaxslararo o'zaro aloqasinining imkoniyatlarini hisobga olishi muhim. O'quv faoliyatida maqsadni muvaffaqiyatli qo'yish qobiliyatlarini kasbiy faoliyatda maqsadni qo'yishga tayyorgarlikni rivojlantirish asosida yotadi. Kreativ qobiliyatlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan kasbiy istiqbolli maqsadlarni qo'yish va talabalarning o'quv faoliyatini ularga bo'ysundirish shaxs xulqiga ma'lum motivatsion-psixologik stabillik baxsh etadi. A.K. Markova ishlab chiqqan o'quv faoliyatida talabalarda maqsadlarni belgilash malakalari tizimida shaxsning motivatsion sohasining yetukligi ko'rsatkichlari quyidagilardir: bir necha maqsadlar orasidan bittasini tanlash va tanlovni asoslab berish; uning realligini va erishish mumkinligini tasavvur qilish; o'z maqsadlarini faol tekshirish va keyingi bosqichda ularga erishish (muvaqqiyat – muvaqqiyatsizlik) darajasini hisobga olgan holda aniqlashtirish; maqsadlarning shart-sharoitlarga bog'liqligini konkretlashtirish va aniqlash va b. [3].

Shunday qilib, tibbiyot oliy ta'lif tashkilotida shaxsga yo'naltirilgan o'qitish pozitsiyasidan maqsadni belgilash jarayoni tibbiyot pedagogning talabalar bilan o'zaro aloqasidagi faol pozitsiyasining natijasi hisoblanadi. Mohiyatan maqsadlar "birinchidan, pirovard natijaning risoldadagi obrazini hamda har bir shaxsning ongli tanlovini ifodalashi; ikkinchidan, keyingi faoliyat mazmunining modelini (nima qilish kerak?) qurishni ko'zda tutishi; uchinchidan, faoliyat meyorlarini – mutaxassis majburiyatlarini (qanday qilish kerak?) modellashtirish; to'rtinchidan, tibbiyot xizmat faoliyatini bajarish uchun kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan sifat va qibiliyatlarini takomillashtirish yo'llarini modellashtirish (nimalarni egallash muhim?); va nihoyat, faoliyat kooperatsiyasini va bog'lanishini loyihalashtirish (bu dunyoda odamlar bilan ijtimoiy va kasbiy o'zaro aloqa masalalarini muvaffaqiyatli va ijodiy hal qilish uchun qanday o'zaro aloqa qilish va fikrlash kerak?)" [4].

Aytiganlardan o'qitish texnologiyasi doirasida talabalarda kreativ qobiliyatlarini takomillashtirish maqsadlari tashxis yo'li bilan shakllantirilishi, ya'ni berilgan vaqtida ma'lum o'quv-bilish vazifalarini hal qilish asosida ularning erishgan yutuqlari darajasi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin bo'ladigan qilib aniq va lo'nda shakllantirilishi kerak. Demak, talabalarda kreativ qobiliyatlarini takomillashtirish maqsadi quyidagilar bajarilgan holda tashxisiy qo'yilgan deb hisoblash mumkin bo'ladi:

birinchidan, talaba faoliyatining shakllantirilayotgan shaxsiy sifatini aniq va lo'nda qilib tavsiflash va bu sifatni har qanday boshqa sifatlardan xatosiz ajratib olish mumkin bo'ladi;

ikkinchidan, uning shakllantirilganligini ob'ektiv nazorat qilish jarayonida shaxs faoliyatining tashxis qilinayotgan sifatini aniqlashning usuli (instrumenti) mavjud bo'ladi;

uchinchidan, nazorat ma'lumotlari asosida tashxis qilinayotgan sifatning jadalligini o'lchash mumkin bo'ladi va sifatning o'lchash natijalariga asoslanuvchi baholash shkalasi mavjud bo'ladi.

Shulardan kelib chiqib, tibbiyot oliy ta'lim tashkilotida talabalarning kreativ qobiliyatlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan tashxisiy maqsadni qo'yish muammosini amaliyotda ikki xil usul bilan hal qilinishi mumkin:

- 1) ichida ierarxiyasi aniqlangan maqsadlarning aniq tizimini qurish;
- 2) talabalarda kreativ qobiliyatlarini takomillashtirishning maqsadlaprini kuzatilayotgan hattiharakatlar tiligm ko'chirish yo'li bilan.

Aytiganlardan tibbiyot-kasbiy ta'lim tizimida pedagogik maqsadni qo'yish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olgan, degan xulosa chiqarish mumkin:

- maqsadlarning ierarxiyasini va amariy ustuvorligini aniqlash uchun qo'yilishi;
- talaba ijodiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishi uchun muhim bo'lgan kichik maqsadlarni ajratib olinishi;
- qo'yilgan kichik maqsadlarni amalga oshirishda fan sohasining ("Tibbiyotda axborot texnologiyalari" o'quv fanining) axborot jihatidan o'ziga xos tomonlarini va imkoniyatlarini tahlil qilish;
- ta'limdagi yetakchi kichik maqsadlarning talablari bilan talabalarning tashxis qilinayotgan immkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni pedagogik aniqlash, bu o'quv bilash faoliyatida ularni bartaraf qilish uchun talabalarga beriladigan konkret topshiriqlarni belgilab olish imkoniyatini beradi;
- berilgan faoliyatining o'quv mazmunini hamda konkret yutuqlarga erishish uchun uni o'quv faoliyatiga jalb qilish ketma-ketligini aniqlash;
- barcha ma'lum axborotlar asosida konkret ta'lim vazifalarini va ularni hamkorlikda hal qilish usullarini (jamoaning hamkorlikdagi faoliyati vazifalari ko'rinishida) va individual ijodiy vazifalar ko'rinishida (o'quv jarayonining har bir ishtirokchisining o'z-o'zini takomillashtirishi) ajratib olish.

Maqsadni qo'yishning ushbu algoritmini amalga oshirish tibbiyotda axborot texnologiyalarini o'qitishning berilgan bosqichida ham axborot-mazmuniy ham, shaxsiy rivojlantiruvchi maqsadlarning butun majmuasini hal qilish imkonini beradi [4,5].

Shuning uchun ham oliy tibbiyot ta'lim tashkilotida tibbiyotda axborot texnologiyalarini o'qitish jarayonida talabalarda kreativ qobiliyatlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyani loyihalashtiirishda maqsadni qo'yishni quyidagi bosqichlarda amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Talabalar "Tibbiyotda axborot texnologiyalari" o'quv fanini o'zlashtirishi jarayonida mutaxassislarini tayyorlashning maqsadlari

| Bilish sohasi | Motivatsion-qadriyatlischeha | Operatsional va psixomotor soha | (ijod) takomillashtirish sohasi |
|--|---|---|---------------------------------|
| Bilim | Qadriyatlarcha | Malakalar | Kreativ qibiliyatlar |
| Tashxis qilinayotgan guruhlarda o'quv fanining vazifalaridan kelib chiqib maqsadlarni qo'yish | | | |
| O'quv fani bo'yicha kreativ qobiliyatlarini takomillashtirish ga yordam beruvchi maqsadlarni konkretlashtirish | | | |
| | Bo'lim, mavzu, iashg'ulot bo'yicha topshiriqlar | | |
| Kognitiv malakalar | | Ijodiy topshiriqlarni bajarish qobiliyati | |
| Motivatsion-qadriyatlarcha munosabat | | | |
| | Mantiqiy amallar | | |

Tibbiyotda axborot texnologiyalarini o'rganish jarayonida talabalarning kreativ qobiliyatlarini takomillashtirish maqsadlarini aniqlash tizimi.

Qayd qiluvchi eksperiment doirasida talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarning dastlabki holatini tashxis qilish tibbiyotda axborot texnologiyalarini o'rganish jarayonini individual tashkil qilishning zaif jihatlarini, qiyinchiliklarini va asosiys qarama-qarshiliklarini aniqlash imkoninim berdi. ularni tibbiyot oliy ta'lim tashkilotida talabalarning kreativ qobiliyatlarini

takomillashtirish talabalar guruuhlarini tabaqlashtirish asosida rivojlantirishga qaratilgan maxsus o‘qitish texnologiyasini ishlab chiqishda barataraf etishga qaror qilindi. Talabalarni o‘quv faoliyatiga jalb qilish usullarini muammoli-rolli modellashtirish asosida o‘qitish texnologiyasini loyihalashtirish jarayonida o‘qituvchi guruh tiplarining (bundan keyin TG) talabalarni kirish tashxis qilish natijalari asosidagi sifat tavsifnomalarini hisobga olishi muhim. Har bir guruh faoliyatining o‘qituvchi tomonidan tashxis qilinadigan tipik o‘ziga xos xususiyatlarini hi sobga olish o‘quv mavzularini o‘rganishda vazifalarni mezoniylashtirish imkonini beradi [6].

Har bir tipik guruhdagi (TG) talabalar o‘quv faoliyatining kreativ qobiliyatlarni tashxis qilishda ob’ektiv ajralib chiqqan o‘ziga xos xususiyatlarini qisqacha tavsiflab chiqamiz. TG-1 guruhga past darajali kreativ qobiliyatlarni talabalar, TG-2 ga o‘rta darajali kreativ qibiliyatlarni talabalar, TG-3 ga yetarli darajali kreativ qobiliyatlarni talabalar, TG-4 ga yuqori darajali kreativ qibiliyatlarni talabalar kiritildi.

TG-1 ga kiritilgan talabalar (7,75%) quyidagi xususiyatlarga ega: ular o‘quv materialidagi mavjud fakt ma’lumotlarini hamda konkret masala bo‘yicha ekspertlarning baholash mulohazalarini yetarli darajada ajrata olmaydilar; konkret faktlar bilan ehtimolliy farazlar o‘rtasidagi farqlarni ajrata olmaydilar; o‘quv materialidagi sabab-oqibat bog‘lanishlarini ajratib ko‘rsata olmaydilar; darslik va qo‘llanmalardagi amaliy ko‘nikmalarini bajarib bera olmaydilar. Ushbu guruh talabalarini uchun o‘qitish texnologiyasi doirasida birichni murakkablik darajasidagi o‘quv vazifalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday vazifalar o‘quv materiali bilan ishlash usullarini shakllantirishni, ularni mustaqil hal qilish usullarini rivojlantirishni, bilimlardagi kamchiliklarni to‘ldirishni, shaxsning o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘z-o‘zini tuzatishdagi kamchiliklarni bartaraf etishni ta’minlaydi. Bu guruhga kiruvchi talabalar “xatodon qo‘rqish” to‘sig‘idan mustaqil o‘ta olmaydilar, mashg‘ulotlarda o‘z fikrlarini ifodalar olmaydilar. Ular faqatgina materialni reproduktiv idrok etishga tayyor bo‘lib, muammoli vazifalarni mustaqil (o‘qituvchining yordamisiz) hal qilishga qodir emaslar. Bunday talabalar uchun o‘qituvchilar va kursdoshlari bilan birgalikda olib boriladigan o‘quv ishi vaqtini ko‘paytirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu bilar birga ular bo‘lim komandirlari va o‘qituvchilar tomonidan tizimli nazoratga muhtojdirlar, chunki ular muammolarni dolzarbga va istiqbolliga tabaqlashtira olmaydilar. Ularning o‘quv faoliyati motivlarining o‘zgarishi ko‘pincha yomon bahodan va intizomiylashtirishga qo‘rqish bilan bog‘liq.

TG-2 ga kiruvchi talabalar (56,89 %) har qanday turdagiga (ilmiy, o‘quv) matnlarning mazmunini va tuzilmasini tahlil qilish, berilgan matnlarni o‘zgartirish malakasi yetishmasligi bilan tavsiflanadilar. Ular o‘quv topshirig‘ining tuzilmasida, uning komponentlari orasidagi bog‘lanishlardagi yo‘nalishni sekin topadilar, o‘quv materialini o‘zlashtirish va uni turli shakllarda qayta ishslash metodlari va usullarini zaif egallagan bo‘ladilar. Bunday talabalar uchun o‘qitish texnologiyasi doirasida ularning fanga bevosita qiziqishni oshirish, o‘quv fanining kasbiy ahamiyatini mustaqil baholashga o‘rgatish, odatdagagi topshiriqlarga original yechim topish va nostandard topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarish qobiliyatlarni rivojlantirish maqsadga muvofiq. Bunday maqsadlar uchun o‘qitish texnologiyasida ob’ekt to‘g‘risida noto‘liq ma’lumotlardan hamda turli belgilardan, jarayonlarning sabab-oqibat bog‘lanishlari to‘g‘risidagi bilimlar asosida tiklanishi lozim bo‘lgan noto‘liq dastlabki ma’lumotlarga ega vazifalarni hal qilishdan foydalanish mumkin. Bu guruh talabalarini uchun ikkinchi darajali murakkablikdagi topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda sxemalardan, grafiklardan, diagrammalardan, ko‘proq topqirlilikka va intuitsiyaga asoslangan rivojlantiruvchi topshiriqlardan foydalanish tavsiya etiladi. Guruh vakillarining katta qismi – vaziyatiy bajaruvchilar bo‘lib, muammoni intellektual ishlab chiqish, ularning yuzaga kelish sabablarini aniqlash, ularning orasidan dolzarbini va istiqboldagisini farqlash malakasiga egadirlar. Shu bilan birga nofaol moslashish, guruh manfaatlariga bo‘ysunishga moyillik, topshiriqlarni o‘qituvchining ishtiropkisiz, biroq buning uchun maxsus ajratilgan vaqtida bajarishni afzal ko‘rish ularga xosdir.

TG-3 ga kiruvchi talabalar (23,27 %) o‘zlarining original yoki yangi, o‘quv-metodik adabiyotlarda berilmagan topshiriqlarni tuza oladilar, o‘qitish texnologiyasi doirasida o‘qituvchi uchinchi darajadagi murakkablikka ega o‘quv topshiriqlari tizimini loyihalashtirishi mumkin. Bu guruh talabalar o‘qituvchi bergan individual topshiriqni bajarishga qiziqadilar. Ular tibbiyot oliy ta’lim tashkilotida mashg‘ulotlarni rejalashtirish va tashkil qilish qoidalariga ongli ravishda bo‘ysunadilar, turg‘un tibbiyotda axborot texnologiyalarini o‘rganish hohishiga egadirlar. Shuningdek talabalar turli nuqtai nazarlarni mustaqil baholashga qodir bo‘lib, o‘z fikr-mulohazalarini ifodalay oladilar va o‘z fikrlarini himoya qiladilar. O‘qituvchi mashg‘uslotlarda talaba intellektining faol ishlashini talab qiluvchi maxsus topshiriqlardan foydalanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

TG-4 guruhining vakillari (12,06 %) ijodiy topshiriqni bajarish imkonini beruvchi turli metodlar, usullar, shakllar va vositalarni egallagan bo‘ladilar. Ular kichik guruhga berilgan topshiriqlarni bajarishda faol ishtirok etadilar, shuningdek o‘rtoqlarini ham guruh ishiga norasmiy jalb qiladilar. Bu guruhga kiruvchi talabalar odatda tibbiyotda axborot texnologiyalaridagi davriy nashrlar bilan mustaqil tanishadilar, qo‘srimcha topshiriqlarni sidqidildan bajaradilar, fanga norasmiy qiziqishni namoyon qiladilar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘qituvchi ular uchun ijodiy, ilmiy-ijodiy, loyihalash-texnik to‘rtinchli darajadali murakkablikdagi topshiriqlar seriyasini loyihalashtirishi mumkin, bunday topshiriqlarda o‘quv-bilish faoliyatini o‘zining qobiliyatlariga, qiziqishlari va e’tiqodlariga mos ravishda mustaqil qurish mumkin bo‘lsin. Bu holda ko‘pincha ilmiy xususiyatga ega, muammoni hal qilish uchun boshqa sohadan olingan bilimlarni talab qiluvchi ijodiy ishlarni bajarishni taklif qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Борисова Н.В *Образовательные технологии как объект педагогического выбора: Учеб. пособие.* -М., 2000. - С. 21.
2. Левина М.М. *Технологии профессионального педагогического образования.* - М.: Издат. центр «Академия», 2001. - 272 с.

O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI MODULIDA INNOVATION TEXNOLOGIYALARING O‘RNI

*Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasи
Choriyev Nuriddin Xo’shboqovich*

Dolzarbliyi: O‘zbekistonning eng yangi tarixi moduli dars jarayonida interfaol usullardan keng frydalanish va ta’limning samaradorligini oshirish dolzarb vazifalardan biridir. Zamonaviy ta’tim texnologiyalaridan samarali foydalanish talabalarini ma’naviy komillik vatanparvarlik, fidoiylik tuyg‘usini singdirishda muhim masalalardan biridir.O‘qituvchi talabalarga bilim va tarbiya berishni to‘g‘ri tashkil etish va interfaol usullardan keng foydalanib dars jarayonini tashkil etsa maqsadga muvofiqdir.O‘qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi.O‘quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to‘g‘ri joriy etilishi o‘qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga zamin yaratiladi va darsning dolzarbligi ortadi.

Maqsad va vazifalar: Pedagogik texnologiyaning eng asosiy belgisi o‘qituvchi va o‘quvchining birgalikdagi faoliyati jarayonidir. Albatta mavzuni yoritishda avvalo talabalarda ijodiy fikrlashga imkoniyat yaratish hamda mavzuning mahiyati ochib berilsa, o‘qituvchi o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erisha olsa, talabalar mavzu yuzasidan aniq belgilangan ma’lumotlarga ega bo‘lsalar va yagona xulosa chiqarsalar, o‘qituvchi o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga erishgan deb topiladi. YA’ni o‘qitish jarayonida,maqsad bo‘yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo‘llaniladigan har bir ta’lim texnologiyasi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida xamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa,xar ikkalasi jobiy natijaga erisha olsa, izlansalar,tahlil qilsalar,o‘zlari xulosa qila olsalar,gurux faolligi ta’mirlansa u ana shu o‘qitish jarayonining asosi va sifati samaradorligi xisoblanadi.**Qo‘llanilgan usul:** “Aqliy hujum” usulidan foydadlanishni ko‘rib chiqamiz. O‘qituvchi dars mavzusini e’lon kiladi, yozish taxtasida savvollar ketma ketligi yozib qo‘yiladi, o‘qituvchi talabalarga erkin fikrlarini

bldirish imkroniyatini yaratadi, xar bir berilgan javoblar qabul kilinadi.Buning uchun pedagog o‘tilayotgan mavzu, masalan: O‘zbekistonda madaniyat va san’atning rivojlanishi mavzusi bo‘yicha talabalarga savollar berib va uning natijasini aqliy hujum usuli orqali savollar yechimi suraladi. Pedagog savollarni ketma ket talabalar e’tiboriga havola etadi.

Olingen natijalar va miuhokamasi: Bu “Aqliy xujum” usulidan asosan seminar mashg‘ulotlarida foydalanish maqsadga muvofiqdir. “Aqliy xujum” usuli orqali O‘zbekistonda madaniyat va san’atning rivojlanishi haqidagi talabalarning bilim va ko‘nikmalari shakillantiriladi. Talabalarning qanchalik mavzuni o‘zlashtirganliklari aniqlanadi va olingen to‘g‘ri javoblar rag‘batlantiriladi hamda xato javoblarga izoh beriladi. “Aqliy xujum” usuli orqali talabalarning savollarga tezkorlik bilan javob berishlari va izlanuvchanliklari o‘rganiladi.

Xulosa: Aqliy xujum”usuli o‘qitish samaradorligini oshirishga va talabalarning fikrlesh qobilyatlarini oshirishda juda yaxshi natija beradi.Savollarning mukammalligi va mavzuni qamrab olganligi esa talabalarda umumiy tushuncha, tasavvur va xulosa chiqarishga bo‘ladi. asos

TIBBIYOT SOHASIDA TIBBIY TERMINLARNING AHAMIYATI VA DOLZARBLIGI

*Ermatova.R.O – TTATF Ijtimoiy- Gumanitar fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Paygamova. Z.X.-TTATF ‘Ijtimoiy - Gumanitar fanlar kafedrasi kattao‘qituvchisi*

Terminologiya doimiy harakatda: nimadir o‘zgaradi, qo‘shiladi, eskiradi, ta’mindan chiqadi, yo‘qotiladi. Ko‘plab qadimdan ma’lum maxsus so‘zlar yangi ilmiy tarkibga ega bo‘ladi Terminologiya ilm, ilmiy adabiyot tilining muhim ajralmas qismidir Fan, texnika va sanoat sohasida muvaffaqiyatli ish olib borayotgan mutaxassis uchun atamalar mohiyatini maxsus leksika, yoki boshqacha aytganda terminologiyani to‘g‘ri tushunishi hamda undan aniq foydalanishi zarur. Terminning (lot. terminus – chegara) asosiy vazifasi ilmiy tushunchani faqat o‘ziga xos ifodalashdan iborat. Termin sifatida alohida yakka so‘z (organizm, hujayra, organ, gen, kasallik, appenditsit, fluorografiya) bilan bir qatorda so‘z birikmasi (ko‘krak qafasi, ensa suyagi, gipertonik kasallik, sanitar ishlov berish, radiatsion gigiyena) ham bo‘lishi mumkin. Kundalik hayotda ishlatiladigan adabiy tilning ommabop so‘zlaridan farqli o‘laroq terminlarda ilmiy va ilmiy-texnik tushunchalar ifodalanadi. Ilmiy tushuncha o‘zining ilmiy nazariy xulosalar mahsuliligi, ma’lum bir ilmiy nazariya, bilimlar ilmiy tizimi fragmentini aks yetirishi bilan ajralib turadi. Innovatsion texnologiyalardan foydalanib, o‘tilgan darsda talabalar o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyish qilishga erishadilar, jamoa bilan ishlash malakasiga ega bo‘ladilar, o‘zgalar fikrini hurmat qilishni o‘rganadilar. Bu esa, darsning samaradorligini oshirib, ta’lim sifatini kafolatlashga xizmat qiladi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi talabalarga tibbiyot terminologiyasi asoslarini: anatomiq, klinik va farmatsevtik atamalarni, ularning tuzilishini, tarkibiy qismlarini tibbiy atamalar shakllantirishda terminlarning ishtirokini o‘rganishga yordam berishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda -Tibbiyot oliygohlari talabalariga ta’limni tashkil etishga innovatsion yondashish natijasida uzlusiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida deyarli har bir dars, o‘quv mashg‘ulotida talaba va talabalarning amaliy faoliyatini modul tizimi asosida tashkil etish an’anasi bir qadar shakllandi. Ayni vaqtida bu boradagi tajribani yanada boyitishga nisbatan ehtiyoj mavjud. Shu sababli OTM pedagoglarida modul tizimini shakllantirish borasidagi ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, o‘quv mashg‘ulotlarida bajariladigan topshiriqlar uchun modul tizimi asosida tayyorlanishi pedagoglarda kreativlik qobiliyatini yanada rivojlanishiga yordam beradi.

OLIY TA’LIM TALABALARININING MULOQOT KO‘NIKMALARINI METODIK RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY USULLAR

Atamurodova Munira Maxammadieva

Hozirgi zamon yoshlari aqliy kamolotining rivojlanib borayotganini, ularning ilm o‘rganishga chanqoqligi, mustaqil fikrlash va ilmiy-ijodiy izlanishlari, yangiliklar va kashfiyotlarga nisbatan cheksiz qiziqishi va ta’lim mazmuniga talabchanligi, o‘qituvchining o‘z ustida ishlashiga, malakasini oshirib borishda va ongini yanada rivojlantirishda, umumta’lim tizimidagi barcha yangiliklardan xabardor bo‘lib borishi kerakligini asosiy motiv bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy o‘qtuvchi dars jarayonida “aktyor” emas, aksincha “rejissiyor” bo‘lishi kerakligini anglashi lozim. U o‘z o‘quvchilarining fanga ijodkorlik nuqtai nazari bilan qarashlarini tashkil qilishi, ularda izlanuvchanlik hissiyotlarini shakllantirishi va albatta, yangi pedagogik texnologiya usullarida foydalangan holda darsni tashkil etish kerak bo‘ladi. Interfaol metodlar ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamaydi, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi. Dars mobaynida ma’lum nazariy bilimlarni o‘quvchiga yetkazish unda ayrim faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malaka hosil qilish, ma’naviy sifatlarni shakllantirish, talaba bilimini nazorat qilish hamda baholash o‘qituvchidan yuksak mahorat va tezkorlik talab qiladi. Bugungi kunda ilm-fan, texnika va axborot kommunikatsion texnologiyalar, ishlab chiqarish sohalarining tez sur’atlarda jadallik bilan rivojlanishi ta’lim tizimi xodimlaridan ta’lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, bunda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishni talab etib, har bir tizim xodimi, ayniqsa pedagoglar zimmasiga yanada yuksak mas’uliyat va vazifalarni yuklaydi. Ta’lim-tarbiya bilan bog‘liq pedagoglarning kasbiy salohiyati, malaka va mahorat darajalari, ma’naviy qiyofasi masalalari kabi ilg‘or pedagogik texnologiyalarni mohirona qo‘llay olishlari ona tili ta’lim mazmuninig ustuvor masalalaridan biridir.

